

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

XIZMAT JO'SHQIN — SOHIL SOKIN



G'arbiy Tyanshan tog'lari bag'rida, dengiz sathidan 860 metr balandlikda joylashgan Chorvoq suv ombori Toshkent viloyatining eng yirik turizm markazi hisoblanadi. Umumiy maydoni 37 kvadrat kilometr, hajmi 2 milliard kub metr bo'lgan suv havzasi qirg'oqlarida bir vaqtning o'zida 7 mingga yaqin dam oluvchilarni qabul qila oladigan 12 ta yirik rekreatsion obyektlar va plyaj faoliyat ko'rsatmoqda.

3

TOSHKENT ILM VA MA'RIFAT MULOQOTI MARKAZIGA AYLANDI

«Islom sivilizatsiyasi: tinchlik, bag'rikenglik va ma'rifat yo'li» mavzusidagi birinchi Xalqaro islom sivilizatsiyasi forumi xalqaro jamoatchilik e'tiborini mamlakatimizga qaratdi. Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlarida tashkil etilgan anjuman O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Islom dunyosi ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) hamkorligida o'tkazilmoqda. Forumda o'nlab davlatlardan olimlar, tadqiqotchilar, davlat arboblari va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etmoqda. Anjuman islom sivilizatsiyasining insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi hamda ma'rifatparvarlik an'analarini keng targ'ib etishga bag'ishlangan.

Forum doirasida buyuk allomalar — Imom Buxoriy, Imom Moturiy va Imom Termiziyning boy ilmiy merosi, madaniy merosni asrash, dinlararo muloqot va bag'rikenglikni mustahkamlashga oid dolzarb mavzular muhokama qilinmoqda. Shuningdek, turli mamlakatlarning ilmiy muassasalari o'rtasida yangi hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish yuzasidan fikr almashilmoqda.



DAVLAT BOSHQARUVIDA YANGI RAQAMLI BOSQICH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruvining yagona integratsiyalashgan raqamli platformasini joriy etish, startaplar ekotizimini rivojlantirish hamda telekommunikatsiya sohasini takomillashtirishga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishdi. Unda davlat idoralaridagi tarqoq axborot tizimlarini yagona platformadan boshqarish, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish va ma'lumotlar tahlilini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish masalalari muhokama qilindi. Qayd etilishicha, so'nggi yillarda mamlakatimiz BMTning «Elektron hukumat» reytingida 24 pog'ona yuqoriladi. 2030-yilga qadar O'zbekistonni mazkur reytingning kuchli 30 davlatidan biriga aylantirish maqsad qilingan.

Taqdim etilgan tizim orqali hududlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, ekologik vaziyat, jamoat xavfsizligi, mahallalarning ijtimoiy holati hamda fazoviy ma'lumotlarni yagona raqamli muhitda kuzatish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida muammolarni barvaqt aniqlash, topshiriqlar ijrosini nazorat qilish va resurslarni samarali taqsimlash nazarda tutilgan.

Musulmon ZIYO

MINNATDORLIK

Joriy yilning 16-18-iyun kunlari Toshkent shahrida V Toshkent xalqaro investitsiya forumi (TXIF) o'tkazildi. Forum davomida jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari xodimlari samarali xizmat qildilar.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov nomidan Ichki ishlar vaziriga minnatdorlik maktubi keldi.

Unda forum doirasida ko'rsatilgan yuksak darajadagi amaliy ko'mak, yaqin hamkorlik, qat'iy intizom hamda yuksak professionallik uchun Ichki ishlar vazirligining barcha shaxsiy tarkibiga chuqur minnatdorlik bildirilgan.



«Dunyoning nufuzli delegatsiyalari va xorijiy kompaniyalar vakillari ishtirok etgan ushbu yirik anjumaning har tomonlama xavfsiz, tinch va yuqori tashkiliy saviyada o'tishida, kun-u tun jamoat tartibini va yo'l harakati xavfsizligini namunalidir darajada ta'minlagan xodimlarning fidokorona mehnati hamda mas'uliyatli yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi», deyiladi maktubda.

Shuningdek, xatda o'z qasamyodiga sodiq, mas'uliyatli va fidoyi ichki ishlar organlari xodimlarining kelgusi faoliyatlarida muvaffaqiyat, sihat-salomatlik, oilaviy xotirjamlik tilab, ezgu niyatlar yo'llangan.

Iftixor

YUKSAK SHARAF HISSI

Shu yilning 4-iyul kuni hayotimda o'chmas iz qoldirgan, qalbimga cheksiz g'urur va hayajon baxsh etgan tarixiy voqea yuz berdi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Sergeli tumaniga tashrif buyurib, boshqaruv tizimini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan yaqindan tanishdilar. Quvonarlisi, davlatimiz rahbarining bevosita topshiriqlari asosida ishlab chiqilgan, Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar IIBB hamda hududiy bo'linmalariga onlayn murojaat yuborish terminali, uning qulayliklari va innovatsion afzalliklari to'g'risida axborot berish aynan menga nasib etdi.

Mamlakat rahbari bilan yuzma-yuz turib muloqot qilish, ushbu yangi innovatsiyaning ishlash prinsiplarini amalda ko'rsatib berish yuksak mas'uliyat talab etardi. Biroq, aynan o'sha paytda Ichki ishlar vazirligi rahbariyatining menga bildirgan yuksak ishonchi, shaxsan



vazirimizning «Sizga ishonamiz, albatta uddalaysiz!» degan samimiy so'zlari menga kuch-quvvat bag'ishladi.

Axborotim yakunlangach, ushbu «aqlli» qurilmaning keng imkoniyatlari davlatimiz rahbariga ma'qul bo'ldi va loyiha ijobiy baholandi. Prezidentimiz aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida ushbu terminalarni odamlar gavjum bo'ladigan maskanlarga, bozorlar va boshqa ijtimoiy obyektlarga o'rnatish bo'yicha zarur topshiriqlar berdilar.

Uchrashuvdan so'ng ham qalbimdagi cheksiz hayajon va quvonch meni hamon tark etmaypti. Yangi O'zbekiston ichki ishlar organlarining yangi avlodi sifatida bildirilgan yuksak ishonchni kelgusidagi faoliyatim davomida fidoyilik va burchga sadoqat bilan albatta oqlayman.

Dilafroz AHMEDOVA,
Toshkent shahar IIBB
Xavfsiz turizmni ta'minlash
boshqarmasi inspektori,
leytenant.


TIZIM FAOLIYATIDAN LAVHALAR



IIV Jamoat xavfsizligi departamenti hamda Respublika «Istiqbolli avlod» ijtimoiy-axborot markazi o'rtasida memorandum imzolandi.



Malakali tibbiyot kadrlarni IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti tizimiga jalb etish bo'yicha targ'ibot tadbirlari davom etmoqda.



Tezkor video: Toshkentda transmilliy kiberjinoiyat zanjiri uzildi! Yuzlab shaxslar qo'lga olindi.



Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi «Erkaklar muruvvat uyi»dagi bemorlarga O'zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiya ID-kartalari hamda sovg'alari topshirildi.



«Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbiri doirasida Andijon shahar IIB xodimlari tomonidan olib borilgan tadbirlar natijasida transport vositasini olib qochish bilan bog'liq jinoyat fosh etildi.



5 yildan buyon chet davlatdan psixotrop modda olib kirayotgan narkobaron qo'lga olindi.



Jizzax viloyatida kripto-aktivlar savdosi bilan qonunga xilof ravishda shug'ullangan shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

XIZMAT JO'SHQIN – SOHIL SOKIN

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Yozgi mavsumda bu yerdagi salqin havo va go'zal tabiat minglab yurtdoshlarimizni o'ziga ohanraboddek tortadi. Shu bois Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan hududdagi plyajlar va dam olish maskanlarida xavfsiz turizmni ta'minlash yuzasidan muhim vazifalar belgilangan.

Diqqatga sazovor jihati, O'zbekistonda ilk bor suv obyektlarida xavfsizlikka ixtisoslashtirilgan maxsus bo'linma aynan Bo'stonliq tumanida tashkil etildi. Bu mamlakatimizda xavfsiz turizm tizimini yangi bosqichga olib chiqish, suv transporti harakatini samarali nazorat qilish va sayyohlar xavfsizligini



kafolatlash yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Bo'linma asosan tumandagi Chorvoq suv ombori va unga tutash hududlarda jamoat tartibini saqlash, turistik zonalarda, xususan, suv bo'ylarida patrul xizmatlarini olib borish, sayyohlar xavfsizligini ta'minlashga mas'uldir.

Tahlillarga ko'ra, yoz mavsumi avjiga chiqqanda kunlik sayyohlar oqimi 100 ming nafarga, hududga kirib-chiquvchi avtotransport vositalari soni esa 38 mingtaga yetadi. Ayni paytda suv havzasida 215 ta suv transporti harakatlanmoqda. Bunday katta ko'rsatkich, tabiiyki, xavfsizlik choralari maksimal darajaga ko'tarishni talab etadi.

Aytish joizki, sohaga raqamli texnologiyalar faol joriy etilib, zamona-viy kuzatuv kameralari tarmog'i kengaytirilmoqda.

– Yaqin istiqbolda PTZ (buriluvchi, boshqariluvchi), avtomobil raqamini aniqlovchi va yuzni tanib oluvchi kameralar soni keskin

oshiriladi. Bu orqali qirg'oq bo'yi va suv yuzasidagi har qanday shubhali harakat, qoidabuzarlik yoki baxtsiz hodisalar Markaziy dispetcherlik punktida onlayn rejimda kuzatib boriladi, – deydi tuman IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'limi suv obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi katta inspektori, leytenant Ro'zmat Azimjonov.

Bo'linma xodimlari tomonidan dam olish maskanlarida faoliyat yuritayotgan xususiy tadbirkorlar o'rtasida targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, hududda xavfsizlikni ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar alohida e'tiborga molikdir. Bu Bo'stonliq tumanining mahalliy va xorijiy sayyohlar nigo-hidagi «Xavfsiz turizm maskani» maqomini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.

Hikmatilla ALIMJONOV
olgan suratlar.

Toshkent viloyati.

Генералнинг ҳаёт формуласи

Инсон умри ҳар доим текис ва раван эмас. Айниқса, Ватан ҳимояси ва эл осойишталигини ўз тақдирига дахлдор деб билган шарафли касб эгаларининг ҳаёти кўпинча синовлару машаққатлар гирдобиди кечади. Адолатпарварлиги ва букилмас иродаси билан ном қозонган генерал-майор Талъат Сатторовнинг ҳаёт йўли ана шундай шиддатли, зиддиятли ва синовли даврлар ичра кечган.

СИНОВЛАРДА ИНМАГАН АБОТ



У хизмат фаолияти давомидида иккита вилоятда ИИБ бошлигининг биринчи ўринбосари ва тўртта вилоят ИИБ бошлиги лавозимларида ишлаб, II даражали «Шон-шараф» ордени ва «генерал-майор» олий унвонига сазовор бўлган.

КУРТАК ОЧГАН ОРЗУЛАР

Талъат Сатторов 1955 йилда Самарқанд шаҳридаги зиёли оилада дунёга келди. Отаси Субҳон ота қурилиш ташкилотидида раҳбарлик лавозимларида меҳнат қилган, онаси Мунаввара ая эса мактабда ўзоқ йиллар ёшларга билим берган оқила аёл эди. Оиладаги тартиб, тарбияга бўлган кучли эътибор ва китобга муҳаббат бўлажак ИИО ходимининг характерини эрта шакллантирди. У мактаб давридаёқ интизоми ва интилувчанлиги билан ажралиб турадиган ўқувчи эди. Ёш йигитчанинг қалбидида ички ишлар орган-

ларида хизмат қилиш орзусининг куртак очишига Тошкент шаҳар ИИБ бошлиғи бўлиб ишлаётган амакиси, генерал-майор Ислон Сатторовга ҳавас сабаб бўлган.

Бироқ Талъат Сатторов ҳеч қачон амакисининг обрў-эътибори ёки юқори мавқеидан фойдаланмади. У илк қадамлариданоқ барча ютуқларга фақат ўз кучи, тинимсиз изланиши ва сабр-тоқати эвазига эришишни мақсад қилди. Бу унинг ҳаётий тамойилига айланди.

АРМИЯДАН ОЛИНГАН САБОҚ

Ички ишлар соҳасига киришдан аввал Талъат Сатторов ҳақиқий аскарлик мактабини ўтади. Тинч океани флотидаги уч йиллик хизмат ёш йигитни жисмонан ва руҳан чиниқтирди. Ҳарбийдан қайтгач, ички ишлар органларида хизматни энг пастки бўғиндан бошлади. Тошкент шаҳар ИИБнинг чўнтак ўғирларига қарши кураш бўлими-

да сержант унвонида фаолият юритаркан, аввал пойтахтнинг ҳар бир автобуси, трамвайи ва кўчасини яхшилаб ўрганди. Устозларидан соҳанинг сирасорларини ўрганиб, бир нечта жиноятларни очишда бевосита иштирок этди. ИИБ Тошкент олий мактабини муваффақиятли тамомлагач, пойтахт ИИБ ЖКБда ҳамда ИИБ Транспорт бошқармасида ўз фаолиятини давом эттирди.

ҲАҚИҚАТНИНГ ҚАРОР ТОПИШИ

1980 йилларда бошланган «ўзбеклар иши» бўрони Сатторовлар хонадонини ҳам четлаб ўтмади. Аввалига генерал-майор Ислон Сатторов, кўп ўтмай эса ёш Талъат Сатторов ҳам сохта айбловлар билан ҳибсга олинди. У умрининг энг гўзал уч йилини панжара ортида ўтказишга мажбур бўлди. Бу сулола учун чексиз изтироб, руҳий қийноқ ва мислсиз синовлар даври эди.

Генерал-майор Ислон Сатторовнинг волидаи муҳтарамаси, Талъатжоннинг суюкли бўвиси Нарзияхон ая кексايиб, соғлиғи анча заифлашиб қолган эди. Шу боис яқинлари муштипар онахонни асраб-авайлаш мақсадида бу мудҳиш фожиани сир тутишга уринишди. Уларга ўғли ва набираси «Москвага малака ошириш учун кетишди», дея тасалли беришди. Лекин она қалбини алдаб бўлармиди? Нарзияхон ая ич-ичидан содир бўлаётган адолатсизликни, жигарбандларининг бошига тушган кўргуликни сезиб, куйиб-ёнарди.

Бир куни у мунгли кўзларини ўзини овутаётган яқинларига тикиб, ушбу сўзларни айтди: «Майли, Талъат-ку ҳали ёш, унинг ўқишга кетганига ўзимни ишонтирай... Аммо ўғлим Ислон аллақачон генерал бўлса, ундан юқори яна қандай унвону мартаба борки, уни ўқишга жўнатишса?! Мени алдаманглар, болаларим...»

Онахоннинг ушбу ўкинч ва изтироб тўла сўзлари хонадон аҳлининг юрагини тилка-пора қилди. Онаизор адолатсизлик қурбони бўлган ўғли ва набирасининг азоб чекаётганини руҳан ҳис қилиб, уларнинг соғинчи билан яшади. Бу сабр ва матонат, айна пайтда эса мустабид тузумнинг инсонлар қалбига солган битмас-туганмас жароҳати эди.

ДИЙДОРГА ТЎЙМАГАН ДИЛШОДБЕК

Талъат Сатторов қамалган пайтда унинг тўнғич ўғли Дилшодбек бор-йўғи икки ёшли гўдак эди. Энг азобли лаҳзалар қамоқхонадаги учрашувлар эди. Турмуш ўртоғи икки яшар гўдакни кўтариб келарди. Ўртада қалин ойна. Бир-бирининг овозини эшитиш учун фақатгина телефон гўшаги. Икки ёшли болақай отасининг иссиқ бағрини, меҳрини қумсарди. У кичкина қўлчалари билан муздек ойнани силар, нариги томонда турган отасига талпинарди.

Xavfsiz va sog'lom yurt

Мамлакатимизда «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Unda jamoat xavfsizligini ta'minlash, aholi osoyishtaligini saqlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish ustuvor vazifa qilib berilgan. Shu bilan birga, tadbirlar davomida har bir xodimdan xizmat intizomi va qonuniylikka qat'iy rioya qilishi, aholi bilan muloqotda xushmuomala bo'lishi hamda fuqarolardan kelib tushayotgan har bir murojaatga tezkor va qonuniy munosabat bildirishi lozimligi alohida ta'kidlandi.

Qoraqalpog'iston. Orolbo'yining barcha shahar va tumanlarida profilaktik tadbirlar doirasidagi ishlar davlat tashkilotlari, mahalla faollari va keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, tizimli ravishda olib borilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda jiddiy muammoga aylanib borayotgan axborot texnologiy-

yalari sohasidagi jinoyatlar — kiberjinoyatchilik hamda firibgarlikning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joylarda tashkil etilayotgan keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlari ham aynan shu maqsadga yo'naltirilgan.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.



AMALIY ISHLAR

Самарқанд. Oylik doirasi-da o'tkazilgan tadbirlarda fuqaroviy o'qotar qurollar va ularning o'q-dorilarini sotish bilan shug'ullanuvchi maxsus litsenziyaga ega savdo-vositachilik do'konlari faoliyati o'rganildi.

Bu jarayonda qurol va o'q-dorilarni saqlash, hisobini yuritish hamda sotish tartibiga rioya etilishi, xavfsizlik talablarining bajarilishi yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi. Do'kon xodimlariga amaldagi qonunchilik talablari yana bir bor eslatildi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.



Генерал ўша кунларни эслаб шундай дейди:

– Камерада ўтирганимда, хаёлдан нималар ўтмайди дейсан... Ота-онанг, ёш аёлинг, мурғак гўдагинг. Ой-нанинг нариги томонида ўғлим менга қараб талпинар, лекин мен уни бағримга босолмасдим. У мени қамокда эмас, балки даволанишда, касалхонада деб ўйларди. Ҳар гал кетишганда, юрагимнинг бир парчаси узилгандай бўларди.

Бироқ Талъат Сатторовнинг иродаси букилмади. У адолат учун курашди. Иш бир неча бор қайта кўрилди. Ниҳоят, адолат қад ростлади – Олий суд уни тўлиқ оқлаб, қамокхонадан озод қилди. У ички ишлар тизимига қайта тикланди, унвонлари қайтарилди. Бу синмаган, букилмаган ўзбек ўғлонининг ҳақиқий ғалабаси эди.

– Отам бизга бутун умр фақат ҳалол яшашни, юртга сидқидилдан хизмат қилишни ўргатди, – дейди Дилшодбек. – Падари бузрукворим ноҳақлик қурбони бўлиб қамалганида, онам адолатни тиклаш учун қўлидан келганча ҳаракат қилди. Энг муҳими, отамга руҳий мадад бўла олди. Биз отамдан матонат ва сабр-бардошни ўрганган бўлсак, онамдан тўғри тарбия ва меҳр олдик. Улар доимо масъулиятли хизматда бўлгани боис, тарбиямиз ва рўзгорининг бор саришталиги тўлиқ онамнинг елкасида эди. Мана шундай ота-онамиз борлигидан фахрланамиз.

МУДҲИШ ЖИНОЯТНИНГ ФОШ ЭТИЛИШИ

Талъат Сатторов Фарғона вилояти ИИБ бошлиғининг биринчи ўринбосари бўлиб ишлаётган вақтда Данғара туманида жуда мудҳиш жиноят рўй беради. Вилоят бўйлаб такси ҳайдовчилари изсиз

йўқола бошлайди. Дастлаб бу оддий бедарак йўқолиш деб гумон қилинган бўлса-да, тез орада вазият ўта жиддий тус олди. Т. Сатторов бунга ўз назоратига олди ва қўл остидаги ходимлар билан ишга киришди. Аввалига жиноятни очиш чўзила бошлади, кейин кутилмаганда калаванинг учи топилди. Йўқолган ҳайдовчилардан бирининг ўғли тезкор ходимлар билан бирга Данғара ва Қўқон тумани чегара ҳудудидаги автомобиллар эҳтиёт қисмлари сотиладиган бозорда юришганда, сотилаётган «Жигули» машинасининг ўт

шафқатсизларча ўлдириб, мурдасини ҳовлининг ўзига кўмиб юборишган. Машиналарни эса бўлақларга бўлиб сотишган.

220 НАФАР КУРСДОШДАН ЯГОНА ГЕНЕРАЛ

2026 йилнинг май ойида Фарғона вилоятида ўзига хос тарихий учрашув бўлиб ўтди. 1982 йилда Талъат Субҳонович билан ИИБ Тошкент олий мактабини битирган бир гуруҳ курсдошлар дийдор кўришишди. Ўшанда улар 220 нафар эди. Йиллар ўтиб, уларнинг

танишдик, мана, дўстлигимизга 40 йилдан ошди, – дейди истеъфодаги подполковник Тўйчи Самиев. – У ҳақиқий маънода суянса бўладиган, иродаси мустаҳкам, барчага маслаҳатларини аямайдиган самимий инсон. Бошидан ўтган ноҳақлик синовларида оиласининг чеккан заҳматлари ва унинг мардонавор тура олгани ҳақиқий матонат намунасидир.

УСТОЗЛАР ЎГИТИ, ШОГИРДЛАР ЭҲТИРОМИ

Инсоннинг касбий камолоти ва зафарлар чўққисига

учун ҳақиқий мактаб вазифасини ўтади.

Генералнинг бошига тушган мудҳиш адолатсизлик йилларида синмаслиги, тизимга қайтиб улкан зафарларни қучишида вазирлик раҳбарияти ва устозларнинг ишончи катта таянч бўлди. Айниқса, мустақил юртимиз ички ишлар тизимининг тамал тошини қўйган ардоқли раҳбар, генерал-полковник Зокир Алматовнинг кўрсатган ғамхўрлиги, юксак эътибори ва чексиз ишончини Талъат ака бугун ҳам алоҳида фахр билан тилга олади.

Мана шундай буюк устозларнинг дуосини олган қаҳрамонимизнинг ўзи ҳам республика миқёсида юзлаб фидойи ходимларни тарбиялаган устозга айланди.

ОИЛА УНИНГ ТАЯНЧИ

Бугунги кунда генерал оила бағрида ибратли ҳаёт кечирмоқда. Унинг ёнида узоқ йиллар, энг оғир ва суронли кунларда ҳам содиқ елкадош бўлган, ҳаётнинг машаққатли синовларини биргаликда мардонавор енгган рафиқаси билан биргаликда уч фарзандни тарбиялаб, уйли-жойли қилишди.

Эътиборлиси шундаки, оиладаги муҳит, отанинг адолат ва қонун устуворлиги йўлидаги фидойилиги фарзандларнинг тақдир йўлини ҳам белгилаб берди. Дилшодбек, Ситора ҳамда Шаҳзод ота касбига юксак ҳурмат руҳида улғайиб, ҳуқуқшунослик соҳасини танлашди. Бобосининг жасорати ва ибратли ҳаёт йўлидан фахрланувчи набиралар эса сулоланинг эртанги куни, келажакнинг янги ғунчаларидир.

Сарвар СОБИРОВ, ўз мухбиримиз.

Тошкент шаҳри.



олдириш қулфида турган калит брелоги отасига тегишли эканини таниб қолади. Мана шу калит брелоги ички ишлар ходимларига қотилларнинг изини топишда қўл келди.

Олиб борилган тезкор-қидирув тадбирлари натижасида ушбу даҳшатли қотилликларни эр-хотин содир этаётгани фош этилди. Улар йўл четида турган таксиларни ёллаб, хилват жойларга боришган. Сўнг ҳайдовчини «уйимизда бир пиёла чой ичиб кетинг» деб алдаб, ўз хонадонларига бошлаб келишган ва уларни

кўплари бу дунёни тарк этди, баъзилари эса соғлиғи сабабли кела олмади. Шу боис Фарғонада 40 нафар битирувчи жам бўлди.

Энг эътиборли жиҳати шундаки, 220 нафар курсдошдан фақатгина бир киши – Талъат Сатторов генерал-майор мақомигача кўтарилди. Шунинг ўзиёқ унинг нақадар матонатли, пўлат иродали, сабр-бардошли ва ўз касбига фидокор инсон эканлигининг исботидир.

– Биз Талъат Сатторов билан беғубор йигитлик даврида

чиқишида тўғри йўл кўрсатган устозлар ўғити ҳамда унинг мактабини давом эттирувчи содиқ шогирдлар ардоғи неъмат – аслида. Генерал-майор Талъат Сатторовнинг хизмат йилларидаги илк муваффақиятлари ва жиноятчиликка қарши курашда тобланишида биринчи устози полковник Ҳайдар Азизовнинг хизмати бекиёс. Соҳа сирларини мукаммал ўргатган устози подполковник Сергей Арутюнов ҳамда полковник Марс Қосимовларнинг ҳаётий сабоқлари ҳам бўлажак раҳбар

DAVOM ETMOQDA

Jizzax. Viloyat IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlarining mol-mulki daxlsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda zamonaviy texnik vositalardan samarali foydalanish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish va aholi bilan ochiq muloqot o'rnatishga alohida e'tibor qaratilgan.

Jizzax shahridagi savdo markazlari, bozorlar va xizmat ko'rsatish obyektlarida navbatdagi targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. Bu jarayonda tadbirkorlarga zamonaviy signalizatsiya tizimlari, videokuzatuv qurilmalari hamda «tashvish»



tugmasining afzalliklari, obyektlarni markazlashtirilgan qo'riqlovga topshirish tartibi haqida batafsil ma'lumot berildi.

Eng muhimi, bir qator tadbirkorlar savdo obyektlarini qo'riqlash xizmati muhofazasiga topshirish bo'yicha ishonch bildirdilar.

Akrom ERXONOV, kapitan.

Navoiy. Oylik davomida noqonuniy muomaladagi giyohvandlik vositalarini aniqlash, tarqalish kanallarini bartaraf etish hamda ushbu turdagi jinoyatlarining oldini olishga qaratilgan tezkor tadbirlar kuchaytirildi. Ta'lim muassasalari, mahallalar va mehnat jamoalarida giyohvandlikning ayanchli oqibatlari

haqida profilaktik uchrashuvlar, davra suhbatlari va targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish ham oylikning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Internet tarmoqlari va ijtimoiy platformalar orqali sodir etilayotgan firibgarliklar, bank kartalari ma'lumotlarini qo'lga kiritish, soxta havolalar, zararli APK-fayllar hamda shaxsiy ma'lumotlarni o'zlashtirib olish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish maqsadida keng qamrovli profilaktik ishlar tashkil etilmoqda.

Mahliyo XOLOVA, o'z muxbirimiz.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Halollikni shoir qilgan xodimlar

INSPEKTOR –
HAYDOVCHINING DO'STI

Oltiariq tumanidagi sershovqin ko'chalarda mashinalar shamoldek yeladi. Chorrahada xizmat olib borayotgan yo'l-patrul inspektori e'tiborimni tortdi. U avtomashinalar harakatini boshqarar, ayrim transportlarni to'xtatib, haydovchining hujjatlarini ko'zdan kechirar, ularga oq yo'l tilab kuzatib qo'yardi. Quyosh tikkaga kelgan, yerni tandirdek qizdiradi. Hamma o'zini soya-salqinga urayotgan pallada inspektor peshonasidan ter oqib, o'z ishini mardona-vor bajaryapti.

Birdan davlat raqamisiz skuterni boshqarayotgan yigitcha ikkinchi darajali yo'ldan chiqib, katta yo'lda betartib harakatlana boshladi. Ziyrak inspektor uni darrov payqadi va to'xtatish ishorasini qildi.

– Hurmatli haydovchi, – dedi u yigitning hayajonini sezib. – Ikkinchi darajali yo'ldan asosiy yo'lga chiqishda juda hushyor bo'lishingiz kerak. Bunday vaziyatda qilgan xatoyingiz boshqa transportlar harakatiga xalaqit berishi va o'zingizga ham xavf tug'dirishi mumkin. Qolaversa, skuterni ro'yxatdan o'tkazib, davlat raqamini taqib olishingiz zarur. Eng muhimi, skuterni boshqarish paytida boshingizga motoshlem kiyib oli-

– 2004-yilda faoliyatimni qo'riqlash xizmatida boshlaganman, – deydi u. – 2019-yildan yo'l harakati xavfsizligi tizimiga o'tib, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilishda davom etyapman. Kasbimni juda yaxshi ko'raman. Odamlar «YPX xodimi faqat jarima yozadi, haydovchining aybini izlaydi», deb noto'g'ri o'ylashadi. Aslida inspektor – haydovchining do'sti. Qoidani buzmasangiz, u sizga doim oq yo'l tilaydi.

Ming afsuski, yo'llarda qonun-qoidalarini mensimay yuradigan fuqarolar ham yo'q emas. Yaqinda E. Homidov Oltiariq tumanining Azimobod qishlog'i hududida xizmat olib borayotgan vaqtida davlat raqam belgisiz harakatlanib kelayotgan «Gentra» rusumli avtomashinani to'xtatdi. Boz ustiga, haydovchi bilan muloqot jarayonida uning tegishli hujjatlari yo'qligi, avtomashinaning jarimalardan talaygina qarzdorligi borligi ham ma'lum bo'ldi. Shu bois bayonnoma rasmiylashtirib, avtotransportni jarima maydoniga joylashtirdi.

Haydovchi esa inspektorga ma'muriy bayonnomani yo'q qilish va mashinani jarima maydonidan olib chiqish evaziga 300 AQSH dollari miqdoridagi pulni pora sifatida taklif



shingiz shart. U sizni xavf-xatardan asrashga yordam beradi. Sizga oq yo'l, ehtiyot bo'lib, manzilingizga eson-omon yetib oling!

Inspektorning bu samimiy muomalasidan so'ng haydovchi yigitning yuzida minnatdorlik aks etib, tavsiyalarga so'zsiz amal qilishga va'da bergancho yo'lida davom etdi.

Fursatdan foydalanib, inspektor bilan suhbatlashdim. U o'zini Farg'ona viloyati IIB Birinchi mintaqaviy hudud saf bo'linmalari yo'l-patrul xizmati otryadi uchinchi safarbar guruhi inspektori, safdor Elmurod Homidov deb tanishtirdi.

qila boshladi. Safdor E. Homidov bu taklifni keskin rad etib, pora berish jinoyat ekanligi va qonuniy javobgarlikka sabab bo'lishini qayta-qayta tushuntirdi. Ammo haydovchi fikridan qaytmagach, rahbariyatga bu noqonuniy xatti-harakatni to'xtatish yuzasidan bildirgi berdi. Ushbu bildirgi asosida o'tkazilgan tezkor tadbirda qonunbuzar fuqaro 300 AQSH dollarini bergan vaqtida ashyoviy dalil bilan ushlendi va unga nisbatan qonun ustuvorligi ta'minlandi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Profilaktika xizmati

RETSIDIVISTNI
KIM QUTQARDI?

Yozning osuda tuni. «Qo'g'ay» mahallasi

ko'chalariga sukunat cho'kmoqda.

Simyog'ochlardagi xira chiroqlar nurida xizmat kiyimidagi bir kishi ko'zga tashlanadi.

Bu – mahallaning

tinchligini o'z

hayotining mazmuniga aylantirgan

profilaktika inspektori, podpolkovnik

Mahmudjon

Mahkamov. U atrofni

sinchkov nigoh bilan kuzatarkan, ko'ksini to'ldirib nafas oladi.

Bu osudalik ortida qanchalik og'ir, ko'zga ko'rinmas mehnat va iroda turganini mahalla ahli hamisha ham bilavermaydi...



Inspektor xonasida fuqaro Erkin To'rayev (ism-shariflar o'zgartirildi) ning o'tmish varaqlarini ko'zdan kechirarkanman, qog'ozdagi raqamlar va qonun moddalari zamirida bir umrning naqadar ayanchli qismati yashiringanini his qildim. Bu chorak asrlik yo'qotishlar, panjara ortiga bandi etilgan taqdir bayoni edi. Afsuski, bu insonning hayot yo'li mahallaning ravon ko'chalaridan emas, qamoqxonaning sovuq va umidsiz yo'laklaridan o'tgan ekan. Salkam 23 yil! Bu boy berilgan butun bir umr demakdir.

Ilk bor 15 yoshli o'smirlik chog'ida – 1996-yilda jinoyat ko'chasiga kirgan yigit o'g'rilik va giyohvandlik botqog'iga shu qadar botgan ediki, yillar zanjiri uni tinimsiz panjara ortiga uloqtirdi... Oxir-oqibat qonun unga dahshatli tamg'ani urdi: «O'ta xavfli retsidivist».

Mana shunday qotib qolgan, qalbi alam va nafratga to'lgan shaxs ma'muriy nazorat ostida mahallaga qaytganda nima sodir bo'ladi? Odamlar undan xavfsirab, o'zlarini panaga oladi, qo'ni-qo'shnilar eshigini qattiqroq zanjirlaydi. Hech kim unga ishonmaydi, hech kim ish bermaydi. Ishonchsizlik devori esa sobiq mahkumni yana o'sha eski hunariga – yangi jinoyatga majbur qiladi.

Inspektor stol ustidagi nazorat jildlarini sinchiklab o'rgandi. 2005-yildan buyon ichki ishlar tizimida toblangan, oliy ma'lumotli bu ofitser jinoyatchilikka qarshi kurashning mutlaqo boshqacha falsafasini yaratgan edi.

– Jinoyatchini faqat qo'rqitib jilovlab bo'lmaydi, – deydi podpolkovnik M. Mahkamov biz bilan suhbatda. – Salkam chorak asr qamoqda o'tirgan odam jazodan qo'rqmaydi. Uning ichidagi nafrat muzini faqat bitta narsa bilan eri-

tish mumkin – unga yashash uchun imkoniyat berish. Agar u oilasini boqishga halol yo'l topmasa, baribir yana o'g'rilik qiladi.

Inspektor Erkin bilan uzoq suhbatlar o'tkazdi. Bu so'roq emas, ikki erkakning samimiy suhbat edi. Ofitser retsidivistning ko'zlarida yillar davomida qotib qolgan umid uchqunlarini ko'ra oldi. Inspektor shunchaki nazoratchi bo'lib o'tirmadi, u tavakkal qildi: o'z xizmat obro'sini o'rta qo'yib, mahalladagi hokim yordamchisiga rasmiy xizmat xulosasini taqdim etdi. Ushbu hujjat sobiq mahkum uchun profilaktika inspektorining kafolati edi.

– To'g'risini aytсам, Erkin mahallaga kelganda hammamiz hadiksiragandik. Odamlar xavotirda edi. Lekin inspektorimiz Mahmudjon aka qat'iyat ko'rsatdi. Uning asosli xulosasi bizni ham harakatga keltirdi. Hokim yordamchisi bilan birgalikda unga ish topdik. Jinoyat ko'chasida soch-soqoli oqargan o'sha odamning ilk bor halol mehnat bilan pul topib, ko'ziga yosh olganini ko'rdik. Mahallamizdagi eng xavfli nuqta mana shunday tinchidi, – deya o'sha kunlarni eslaydi Uchqo'rg'on tumanidagi «Qo'g'ay» MFY raisi Eldor Dehqonov.

Bu oddiy voqea emas. Bu – jazolash tizimidan ko'ra, to'g'ri yo'naltilgan profilaktikaning, professional xodim mahoratining g'alabasi edi.

... Oqshom cho'kkan. Qo'g'ay ko'chalari bo'ylab podpolkovnik M. Mahkamov o'z xizmat vazifasini davom ettirmoqda. Uning uyida ikki nafar farzandi yo'lga ko'z tikib o'tiribdi. Ular otasining yelkasidagi yulduzlar yuzlab insonlarning osoyishta hayoti, ertangi kunga bo'lgan ishonchi ekanligini anglab ulg'aymoqda.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

VATAN TINCHLIGI VA XAVFSIZLIGI – UMUMIY MAS'ULIYAT



Tinchlik va xavfsizlikni

ta'minlash har qanday davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Zero, tinchlik bo'lmagan joyda taraqqiyot, ta'lim, investitsiya, oila farovonligi haqida so'z yuritib bo'lmaydi. Shu bois «Vatan tinchligi va xavfsizligiga barchamiz mas'ulmiz» degan g'oya Yangi O'zbekiston taraqqiyotini ma'no-mazmunini belgilaydigan tamoyildir.

Xavfsizlik endi faqat chegarada emas

Bugungi dunyoda xavfsizlik tushunchasining doirasi ancha kengaydi. Ilgari u asosan chegara, armiya va qurol bilan bog'langan bo'lsa, hozir bunga iqtisodiy barqarorlik, oziq-ovqat va energetika ta'minoti, axborot makoni, kiberxavfsizlik, jamoat tartibi, yoshlar tarbiyasi va huquqiy madaniyat ham kiradi.

Stokgolm xalqaro tinchlik tadqiqotlari instituti (SIPRI) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda jahonda harbiy xarajatlar 2 trillion 887 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu qurollanish va xalqaro ishonchsizlik kuchayib borayotganidan dalolat.

Barqarorlik kafolati

O'zbekistonda Vatan himoyasi konstitutsiyaviy majburiyatdir. Asosiy qonunimizda mamlakatni himoya qilish har bir fuqaroning burchi ekanligi belgilangan. Ayni paytda «yetarli darajada Qurolli Kuchlar» tamoyili xavfsizlik siyosatimiz hujumkorlikka emas, o'zini ishonchli himoya qilishga qaratilganini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda xavfsizlikning huquqiy asoslari sezilarli kengaydi. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi, Qurolli Kuchlar harbiy nizomlarining yangilanishi, kiberxavfsizlik hamda davlat sirlariga oid yangi qonunlarning qabul qilinishi xavfsizlik endi faqat harbiy qonunlar bilan cheklanmasligini, balki kibermakon, axborot va fuqarolik

Mintaqa va tashqi siyosat

O'zbekistonning xavfsizligini Markaziy Osiyo mintaqasidagi umumiy barqarorlikdan ajratib bo'lmaydi. Suv va energetika, transport, savdo, migratsiya masalalari butun mintaqaga daxldor. Shu bois qo'shni davlatlar bilan o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik muhitini mustahkamlash tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishidir. 2025-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi hamda uni «Markaziy Osiyo hamjamiyati» strategik formatiga aylantirish taklifi mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi.

Tashqi siyosatda mamlakatimiz bir tomonlama qaramlikni emas, milliy manfaatga asoslangan ko'p vektorli yo'lni tanlagan. Rossiya bilan strategik sheriklik, Xitoy bilan keng ko'lamli hamkorlik, AQSH bilan «C5+1» formati, Yevropa Ittifoqi bilan kengaytirilgan sheriklik — bularning barchasi muvozanat asosida qurilgan. Bu esa xavfsizlikni harbiy yo'l bilan emas, diplomatiya, iqtisodiy manfaatdorlik va ishonch orqali ta'minlashning samarali vositasidir.

Eng muhim vazifa

Davlatning tashqi xavflarga chidamliligi, avvalo, uning ichki barqarorligiga bog'liq. Ichki barqarorlik esa faqat

kuch tuzilmalari faoliyati bilan emas, balki adolatli qonunlar, ijtimoiy himoya, ta'lim, mahalla instituti, sog'lom oila muhiti va huquqiy madaniyat bilan ta'minlanadi.

Ayni shu nuqtada ichki ishlar organlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ekstremizm va radikallashuvning oldini olish, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish — bularning barchasi milliy xavfsizlikning ichki ijtimoiy poydevoridir. Shu ma'noda ichki ishlar organlari milliy xavfsizlik tizimining muhim ijtimoiy-huquqiy bo'g'ini hisoblanadi.

Axborot asrida xavfsizlikka hissa qo'shish har bir fuqaroning qo'lida. Soxta xabarga ishonmaslik, axborotni tekshirish, kibergigiyenaga rioya qilish, jamoat tartibini hurmat qilish, qonunbuzarlikka befarq bo'lmaslik, farzand tarbiyasiga mas'ul bo'lish — bularning har biri Vatan xavfsizligiga qo'shilgan hissadir. Ayniqsa, yoshlarni bilim, kasb-hunarli, huquqiy ong va vatanparvar etib tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Taqsimlangan mas'uliyat modeli

Yuqoridagilardan kelib chiqib, milliy xavfsizlikni «taqsimlangan mas'uliyat modeli» sifatida tasavvur etish mumkin. Unda armiya — harbiy qalqon, qonun — huquqiy tayanch, diplomatiya — tashqi halqa, barqaror iqtisodiyot — moddiy zamin, axborot madaniyati — raqamli himoya, vatanparvarlik va huquqiy ong esa ma'naviy ustundir. Bu qatlamlardan birortasi zaiflashsa, butun tizimda bo'shliq paydo bo'ladi:

kuchli armiya bo'lgani holda axborot makoni himoyasiz qolsa yoxud iqtisod o'sib, huquqiy madaniyat ortda qolsa, xavf ichkaridan kuchayadi. Demak, har bir soha boshqasini to'ldirishi shart.

Xulosa o'rnida «Vatan tinchligi va xavfsizligi — umumiy mas'uliyatimiz» degan g'oyani quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

*kuchli armiya — himoya qalqoni;
adolatli qonun — barqarorlik kafolati;
faol diplomatiya — tashqi xavflarni kamaytirish vositasi;
mas'uliyatli jamiyat — ichki mustahkamlik asosi;
vatanparvar fuqaro — milliy xavfsizlikning tayanchi.*
Aynan ana shu uyg'unlik Yangi O'zbekistonning tinch, barqaror va xavfsiz kelajagini ta'minlaydi.



Muhiddin UMAROV,
IIV Akademiyasi Harbiy
tayyorgarlik kafedresi
boshlig'i, harbiy fanlar
bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor, polkovnik.



Qoraqalpog' tilida



Rus tilida

Yoz — o'tmoqda soz

BAXTLI BOLALIK OSUDA MUHITDAN BOSHLANADI

Asaka tumanidagi «Asaka» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi ko'plab oilalarning ishonchli manziliga aylangan.

Oromgohga qadam qo'yishingiz bilanoq, bu yerda tartib va intizom ustuvor ekanligini his etasiz. Soya-salqin daraxtlar, musaffo havo, ozoda hudud va bolalarning quvnoq kulgisi inson kayfiyatini ko'taradi. Ammo bu maskanning eng muhim jihati — uning har tomonlama xavfsiz ekanidir. Bunga oromgohga rahbarlik qilib kelayotgan iste'fodagi podpolkovnik Inomjon Teshaboyevning ko'p yillik tajribasi va talabchanligi ham sabab bo'lmoqda.

— Oromgohimizda tartib-intizomga qattiq rioya qilamiz, — deydi Inomjon Teshaboyev. — Rejadagi barcha ishlar o'z vaqtida amalga oshirilishi lozim. Chunki bolalarning biologik va fiziologik holati shuni talab qiladi. Qolaversa, xavf-

sizlik nuqtayi nazaridan ham qat'iy choralar belgilangan. Bu borada bizga «Yangiobod» mahallasi profilaktika inspektori, leytenant Jahongir Abdurahimov yaqindan yordam bermoqda.

— Oromgoh tumanimizning chekka hududida joylashgan bo'lishiga qaramay, eng xavfsiz manzillardan biri hisoblanadi, — deydi J. Abdurahimov. — Buning uchun jamoatchilik vakillari bilan o'zaro hamkorligimiz yaxshi samara beryapti. Maskan kun-u tun nazoratimizda. Nafaqat ushbu hududda, balki mahallamizda ham joriy yilda birorta jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etilmagani buning yaqqol isbotidir.

130 o'ringa mo'ljallangan oromgohda bir mavsum davomida 520 nafar bolajon dam



olishi mumkin. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan doimiy hamkorlik natijasida vatanparvarlik mavzusidagi uchrashuvlar va davra suhbatlari muntazam o'tkazilayotgani e'tiborlidir. Bunday tadbirlar yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, qonunga hurmat va fuqarolik mas'uliyati tuyg'ula-

rini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

— Asli Namangan viloyatining Mingbuloq tumanidanman, — deydi mehnat faxriysi Salohiddin Toshtemirov. — Ushbu oromgohning ta'rifi biz tomonlargacha yetib borgan. Shuning uchun nabiramni olib keldim. Bu yerdagi sha-

roitlar meni juda qoniqtirdi. Tabiati so'lim, bahavo ekan. Nabiramning vaqti mazmunli o'tayotganini ko'rib, ko'nglim xotirjam bo'ldi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.
Andijon viloyati.

So'lim tabiat qo'ynida joylashgan Urgut tumanidagi «Chorchinor» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida har kuni yuzlab o'g'il-qizlarning quvnoq kulgisi yangraydi. Ana shu baxtiyorlik, tinch va osoyishta muhit ortida o'z xizmat vazifasini sidqidildan ado etayotgan fidoyi xodimlarning mehnati mujassam.



Mazkur oromgohda xizmat olib borayotgan tuman IIB JXX HPB inspektor-psixologi, katta leytenant Shohrux Esonturdiyevning asosiy vazifasi hududda jamoat tartibini saqlash, bolalar osoyishta dam olishi uchun barcha zarur choralarni ko'rishdan iborat.

— Oromgohimizda har mavsumda 300 nafar yoshlar sog'lomlashtiriladi, — deydi muassasa direktori Anvar Fazliyev. — Katta leytenant Sh. Esonturdiyev nafaqat tartibni nazorat qiladi, balki bolalar bilan yaqindan suhbatlashib, ularning huquqiy ongi va xavfsizlik

madaniyatini oshirishga ham hissa qo'shmoqda. U favqulodda holatlarda qanday harakat qilish lozimligini sodda va tushunarli tarzda tushuntiradi.

Maskanda tashkil etilayotgan sport musobaqalari bolalarda jismoniy chiniqish, jamoaviylik va sog'lom raqobat muhitini shakllantirmoqda. Yozgi ta'tilni maroqli o'tkazayotgan Jasur Berdiyev sport to'garagining faol ishtirokchilaridan biri. U katta leytenant Shohrux Esonturdiyev bilan suhbat davomida ichki ishlar organlari xodimlarining mas'uliyatli xizmati haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lganini faxr bilan tilga oldi.

— Oromgohda bir sмена 12 kun davom etadi, — deydi katta leytenant Shohrux Esonturdiyev. — Men bolalar kelishidan bir kun oldin bu yerga kelib, hududni to'liq ko'zdan kechiraman. Qo'riqlash xizmati va Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda tun-u kun nazorat olib boramiz.

Oromgohda yo'lga qo'yilgan kecha-yu kunduz navbatchilik tizimi har bir bolaning xavfsizligiga bo'lgan e'tiborning amaliy ifodasidir. Huquq-tartibot posbonlari kutilmagan ko'ngilsizliklarning oldini olish va tartib-intizomni ta'minlash yo'lida sergak va hushyor turishibdi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Vobkent tumanida joylashgan «Nurli manzil» oromgohida dam olayotgan bolalar iliq hissiyotlar og'ushida yozni soz o'tkazishmoqda.

— Bu yil ham oromgohimizda to'rt mavsumda bolajonlarning dam olishlari ko'zda tutilgan, — deydi oromgohning mavsumiy direktori Alisher Boboyev. — Ayni paytda uchinchi bosqichda 80 nafardan ortiq farzandlarimiz yaratilgan qulayliklardan bahramand bo'lishyapti. Oromgohda asosan 7–14 yoshli bolajonlar yayrab hordiq chiqarishyapti.

Chindan ham bu oromgohga tashrif buyurgan kishining bahri dili ochiladi. Toza havo, sersoya daraxtzor, ayniqsa, ochiq suv havzasi, sport maydonchalari bolajonlar kayfiyatiga ko'tarinkilik bag'ishlaydi. Bu yerda dam oluvchilar «Kompyuter savodxonligi», «Ingliz tilini o'rganaman», «Raqs», «Kitob — mening do'stim», «Mohir qo'llar», «Rassomchilik» hamda «Sport» to'garaklarida ijodiy imkoniyatlarini namoyish etishlari mumkin. Har haftaning muayyan kunida jadval asosida futbol, voleybol, basket-

bol, shaxmat-shashka musobaqalari o'tkaziladi. Viloyat qo'g'irchoq teatri hamda tuman madaniyat bo'limi san'atkorlari tomonidan ham qiziqarli sahna ko'rinishlari, konsert dasturlari bilan bolajonlar quvonchiga-quvonch ulashyapti.

— Oromgoh to'liq qo'riqlovga olingan, kuzatuv kameralari mavjud. Shuningdek, tuman IIB va FVB ma'sullari tegishli idoralar bilan birgalikda ishlab chiqqan rejaga ko'ra, har bir oromgohda voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar kecha-yu kunduz xizmat o'tashmoqda, — deydi tuman IIB JXX HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologi, katta leytenant Azamat Amonov.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



Bugunning gapi

Yaqin o'tmishda kredit olish murakkab jarayon hisoblanardi. Bankka bir necha marta borish, hujjatlar yig'ish, daromad manbai talab etilardi. Bugun esa moliyaviy xizmatlar raqamlashdi, kredit mahsulotlari ko'paydi, qarz olish imkoniyati ancha kengaydi. Natijada kredit iqtisodiy hayotning odatiy qismiga aylandi.



Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i 220 trillion so'mdan oshgan. Keyingi yillarda aholi kreditlashining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatilmoqda. Ipoteka, avtokredit, iste'mol kreditga bo'lgan talab moliya bozorining eng faol yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Qarz olish haqida qaror qabul qilinayotganda odamlar ko'pincha bugungi ehtiyojdan kelib chiqadi. Yangi uy, avtomobil, ta'lim yoki boshqa maqsadlar qarorning asosiy sababi bo'ladi, ammo **kredit shartnomasi aslida kelajakdagi daromadlar hisobiga tuziladigan moliyaviy majburiyatdir**. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, har qanday qarz insonning ertangi moliyaviy imkoniyatlariga ta'sir qilishi tabiiy.

Xo'sh, kredit aholi farovonligini oshirishga xizmat qilyaptimi yoki daromadlarning sezilarli qismini oldindan sarflab qo'yish mexanizmiga aylanyaptimi? Bu savolga javob topish uchun kreditning jozibasiga emas, ko'pchilik ko'rmaydigan ichki tomoniga nazar tashlash lozim.

– Kredit bozorining barqarorligi uning qanchalik tez o'sishida emas, balki aholining to'lov qobiliyati va kreditlar sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro amaliyotda bu, avvalo, qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati orqali baholanadi. Agar qarz majburiyatlari aholi daromadlariga nisbatan tezroq o'ssa, moliyaviy barqarorlik uchun muayyan xavflar yuzaga kelishi mumkin, – deydi Markaziy bank mas'ul xodimi Shohrux Mahmudov.

Kredit olish haqida qaror qabul qilinayotganda aksariyat insonlar, birinchi navbatda, qancha mablag' olish mumkinligiga e'tibor qaratadi. Bank esa boshqa savolni o'rtaga qo'yadi:

bu mablag' qanday qaytariladi? Aynan shu nuqtada qarzning haqiqiy bahosi namoyon bo'la boshlaydi.

– Amaliyotda fuqarolar ko'pincha kreditning umumiy qiymatidan ko'ra oylik to'lov miqdoriga e'tibor qaratadi. Vaholanki, kreditning to'liq qiymati foiz to'lovlari bilan birga komissiyalar, sug'urta va boshqa qo'shimcha xarajatlarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, qarzning daromadga nisbatini hisobga olmaslik va kelajakdagi

ning ortishi yoki kutilmagan vaziyatlar qarz yukini ancha og'irlashtirishi ehtimoldan xoli emas.

Kredit haqidagi bahslarda ko'pincha ikki qarama-qarshi yondashuv uchraydi. Bir tomon uni moliyaviy imkoniyat deb baholasa, ikkinchi tomon qarzni mutlaq xavf sifatida ko'radi. Aslida hammasi qarz oluvchining maqsadi, rejasi va moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, ta'lim olish, kasbiy malaka oshirish,



ehtimoliy daromadlarga tayanib qaror qabul qilish eng ko'p uchraydigan xatolardan biri hisoblanadi, – deydi Shohrux Mahmudov. – Bir vaqtning o'zida bir nechta kredit majburiyatlarini olish qarz yukini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Natijada oila daromadining kattaroq qismi kredit to'lovlariga yo'naltiriladi.

Moliyaviy sohada bir qoida bor: kreditning eng muhim raqami uning miqdori emas, balki umumiy qiymatidir, chunki qarz oluvchi bankdan 100 million so'm olishi mumkin, ammo muddat, foiz stavkalari, qo'shimcha to'lovlar va boshqa shartlarga qarab ancha ko'proq mablag'ni qaytarishga to'g'ri keladi.

Ish joyining almashishi, sog'liq bilan bog'liq muammolar, oilaviy xarajatlar

tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki ishlab chiqarishni kengaytirish uchun jalb qilingan mablag' muayyan vaqtdan keyin qo'shimcha daromad keltirishi mumkin. Bunday holatlarda kredit iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Masala qarz hisobidan moliyaviy imkoniyat yaratish bilan vaqtinchalik istakni qondirish o'rtasidagi farqni anglashda namoyon bo'ladi.

Kredit masalasidagi eng asosiy savol «bank qancha mablag' berishi mumkin?» emas, balki «men ushbu majburiyatni qanchalik barqaror bajara olaman?» bo'lishi lozim.

Qarz bilan boshlangan har bir orzu albatta muammo bilan tugamaydi, biroq har qanday orzu moliyaviy hisob-kitobdan ustun qo'yilgan paytda xavf paydo bo'ladi. Shu sababli kredit haqidagi eng muhim qoida: qaror mablag'ni olish paytida emas, uni qaytarish imkoniyati hisoblanganidan keyin qabul qilinishi kerak.

Musulmon ZIYO,
jurnalist.

KREDIT OLISHDAN OLDIN HAR BIR INSON O'Z OLDIGA BIR NECHTA MUHIM SAVOLNI QO'YISHI LOZIM

Birinchi savol – xarajatni kechiktirish mumkinmi?

Agar xaridni bir necha oy yoki bir yilga surish imkon bo'lsa, qarz yukiga kirmasdan turib ham, maqsadga erishish ehtimoli mavjud.

Ikkinchi savol – kredit bo'yicha to'lovlar daromadning qancha qismini tashkil etadi?

Moliyaviy barqarorlikni baholashda aynan shu omil hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki oziq-ovqat, kommunal xizmatlar, ta'lim, tibbiy xarajatlari va boshqa ehtiyojlar ham doimiy mablag'ni talab qiladi.

Uchinchi savol – kutilmagan vaziyat yuz bersa nima bo'ladi?

Daromad qisqarishi, ish joyining o'zgarishi yoki boshqa moliyaviy qiyinchiliklar sharoitida kredit to'lovlarini amalga oshirish imkoniyati oldindan baholanishi kerak.

To'rtinchi savol – qaror hissiyot ta'sirida qabul qilinyaptimi yoki hisob-kitob asosidami?

Eng murakkab moliyaviy qarorlar ko'pincha iqtisodiy zarurat emas, balki hissiy ta'sir ostida qabul qilinadi. Reklama, ijtimoiy bosim yoki boshqalar bilan taqqoslash istagi ba'zan insonni o'z moliyaviy imkoniyatlaridan yuqori majburiyatlar olishga undaydi.

RAQAMLI TUZOQ

yoxud bir qo'ng'iroq — ming afsus



akkauntiga o'tkazib, naqdlashtirish orqali izini butkul yo'qotmoqchi bo'lgan. Kiberxavfsizlik xodimlarining sinchkovligi sabab, ushbu shaxs Samarqand viloyati bo'ylab xuddi shu usulda 40 ga yaqin jinoyat sodir etgani va ilgari ham O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan qidiruvda bo'lganligi aniqlandi. Shuningdek, ushbu tizimda noqonuniy pul aylanmasini ta'minlab, qonunga xilof ravishda xizmat ko'rsatib kelgan «1xBet» ish-

tirokchilariga nisbatan ham O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, ularga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanildi.

Bugun kibermakonda osoyishtalikni ta'minlash oddiy ish emas. Soha xodimlari kun-u tun minglab ma'lumotlar oqimini tahlil qiladi, yashirin IP-manzillar (IP-address), soxta profililar va noqonuniy moliyaviy tranzaksiyalar zanjirini sinchiklab o'rganadi. Ularning sergakli-

gi va kasbiy mahorati tufayli yuqoridagi kabi virtual olamda «o'zini xavfsiz sezgan» o'nlab jinoyatchilar qonun oldida javob bermoqda. Biroq xodimlar qanchalik tezkorlik bilan xizmat qilmasin, agar fuqarolarning o'zlari oddiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasalar, firibgarlik qurboniga aylanishi hech gap emas.

Azamat NASRIDDINOV,
Samarqand viloyati IIB
Kiberjinoyatlarga qarshi
kurashish boshqarmasi
MTB inspektori,
katta leytenant.

Yuksak texnologiyalar shiddat bilan rivojlangan asrda yashayapmiz. Qo'limizdagi mittigina smartfon hayotimizni yengillashtirish bilan bir qatorda, o'zgina e'tiborsizlik va soddalik oqibatida katta moliyaviy yo'qotishlarga, xotirjamlikning buzilishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Samarqand viloyati IIB Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan navbatdagi tezkor tadbir tizimdagi yuqori professionallikni ko'rsatish bilan birga, jamiyatimizda «raqamli hushyorlik» nechog'lik muhimligini yana bir bor isbotladi.

Joriy yilning yanvar oyida Oqdaryo tumani «Bozorjoy» MFYda yashovchi, Paynet shoxobchasida ishlovchi fuqaro viloyat IIBga ariza bilan murojaat qildi. Uning oldiga bir taksi haydovchisi kelib, go'yoki o'z tanishi bilan gaplashtirmoqchi bo'lganini aytadi va go'shakni unga uzatadi. Telefonning narigi tomonidagi notanish shaxs o'zini xuddi jabrlanuvchining yaqin tanishidek ko'rsatib, shirin so'zlar bilan ishonchiga kiradi. Uning aldovlariga uchgan paynetchi ko'rsatilgan bank kartasiga jami 14 000 000 so'm miqdoridagi pul mablag'larini o'tkazib yuboradi. Natija esa kutilganidek bo'ladi. Pul tushishi bilan narigi tomon aloqani uzib, raqamni bloklab qo'yadi.

Zamonaviy jinoyatchilar izini yashirish uchun virtual olamning barcha imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilishadi. Biroq viloyat IIB Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi xodimlarining tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida qisqa muddatda jinoyat fosh etildi. Aniqlanishicha, ushbu ayyorlik bilan tuzilgan sxema ortida Bulung'ur tumanida

yashovchi, 1992-yilda tug'ilgan fuqaro turgan ekan.

Jinoyatchi o'zga shaxs nomiga olingan yashirin SIM-kartadan foydalanib, viloyatdagi «OK taksi» xizmatiga qo'ng'iroq qilgan va o'peratorga ma'lum bir manzilni aytib, taksi buyurtma qilgan. So'ng taksi haydovchisi bilan bog'lanib: «Siz falon joydagi paynet shoxobchasiga boring, u sizga to'lov chekini beradi, siz o'sha chekini men aytgan manzilga olib kelasiz», deb haydovchini ham bilmagan holda o'yinga shirik qilib qo'ygan. Taksi haydovchisi shoxobchaga borib, telefonni uzatganida esa, firibgar o'zining «aktyorlik» mahoratini ishga solib, paynetchini aldagan va pullarni o'tkazishga erishgan.

Eng achinarlisi, jabrlanuvchidan firibgarlik yo'li bilan undirilgan 14 million so'm pul mablag'i to'g'ridan to'g'ri qonunga xilof ravishda faoliyat yurituvchi, onlayn qimor va tavakkalchilikka asoslangan «1xBet» o'yinlari hisobini to'ldirish bilan shug'ullanuvchi shaxsning bank kartasiga kelib tushgan. Firibgar bu pullarni o'zining «1xBet» platformasidagi

E'TIBORSIZLIK QURBONIGA AYLANMANG!



KIBER TUZOQLARGA TUSHMASLIK UCHUN QAT'IY QOIDALAR

- 1 TELEFONDAGI OVOZGA HECH QACHON KO'R-KO'RONA ISHONMANG.**

Agar kimdir telefon orqali o'zini tanishingiz, qarindoshingiz yoki yaqin hamkoringiz sifatida tanishtirib, pul o'tkazishni so'rasa, suhbatni to'xtating va o'sha tanishingizning o'ziga qayta qo'ng'iroq qilib, vaziyatni aniqlashtiring.
- 2 PAYNET VA BOSHQA SAVDO SHOXOBCHALARI XODIMLARI**

ko'zi bilan ko'rmagan, shaxsini tasdiqlovchi hujjatini tekshirmagan va pulni naqd ko'rinishda qo'lga olmagan shaxslar uchun hech qachon o'z mablag'lari hisobidan plastik kartalarga pul o'tkazib bermasliklari lozim. Taksi haydovchilari yoki vositachilar orqali berilgan telefondagi «buyruqlar» aksar hollarda firibgarlik bo'lib chiqadi.
- 3 TAKSI HAYDOVCHILARI HAM**

notanish mijozlarning paynetchilar yoki boshqa shaxslar bilan telefon orqali bo'ladigan moliyaviy kelishuvlariga vositachilik qilmasliklari zarur, aks holda bilmagan holda yirik firibgarlik zanjirining bo'g'iniga aylanib qolishlari mumkin.
- 4 «1XBET» VA SHU KABI ONLAYN TOTALIZATORLARDAN YIROQ BO'LING,**

chunki ular nafaqat qonundan taqiqlangan va jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.



ESDA TUTING, siz foydalanayotgan telefon qurilmasi faqat qulaylik vositasi emas, undan noto'g'ri foydalanish sizni katta ko'ngilsizliklarga giriftor qilishi mumkin.

RAQAMLI DUNYODA HUSHYORLIKNI YO'QOTMANG!



Shaxsiy ma'lumotlaringizni hech kimga bermang



Parollaringizni muntazam yangilang



Shubhali qo'ng'iroq va xabarlarga ishonmang



Doimo yaqinlaringiz bilan maslahatlashib harakat qiling

Ibrat

UCH OG'A-INI XIZMATDA

Qashqadaryo viloyati ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan fidoyi xodimlar orasida uch aka-ukaning hayot yo'li va ibratli faoliyati alohida e'tiborga loyiq. Tizimning turli sohalarida xizmat qilayotgan bo'lsa-da, ularni yagona maqsad – yurt tinchligi va el osoyishtaligini ta'minlashdek ezgu maqsad, oliy burch birlashtirib turadi.

Oilaning to'ng'ichi Asqar Normo'minov viloyat IIB JXX Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi Konvoy xizmati xodimi, unvoni – katta serjant. O'n olti yillik tajribaga ega xodim faoliyatini qo'riqlash xizmatida boshlagan, so'ngra PPX batalyonida davom ettirgan. Zimmasidagi vazifalarga mas'uliyat bilan yondashib kelayotgan Asqar hozirgi kunda to'plagan boy amaliy tajribasini yosh hamkasblariga o'rgatib, «Ustoz-sho-

gird» an'anasi rivojiga munosib hissa qo'shmoqda.

O'rtancha farzand, katta serjant Abbas Bobonazarov boshqarma JXX JTSB PPX batalyonida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda faollik ko'rsatmoqda. Hushyorligi, qat'iyati bois u hamkasblari o'rtasida obro'-e'tibor qozongan.

Kenja uka, safdor Suhrob Bobonazarov tizimda faoliyat



boshlaganiga unchalik ko'p vaqt bo'lmadi: u uch yildan buyon qo'riqlash xizmatida. Ayni paytda Dehqonobod tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati 1-otryadi xodimi sifatida zimmasidagi vazifa-

larni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda.

Uch o'g'ilni Vatanga muhabbat, burchga sadoqat ruhida voyaga yetkazgan qamashilik Shodiyor ota Bobonazarov va Zum-

rad aya Turdiyeva ularning elga qilayotgan xizmatidan faxrlanib, farzandlari uchun doim duoda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Soha fidoyilari

MEHR – QALB BEZAGI

«Odatda bolalik deganda xayolimizda eng go'zal xotiralar jonlanadi. Biroq voyaga yetmaganlar bilan ish boshlagan ilk kunlarimdanoq angladimki, hammaning ham bolaligi baxtli o'tmas ekan. Qanchadan-qancha murg'aklar qalbi siniq holda yashayotganini ko'rib, yurak-bag'rim ezilgan. O'shanda o'z-o'zimga bolalarning dil og'riqlariga malham bo'lishga so'z bergandim...»

MARKAZDAGI TO'GARAKLAR

Surxondaryo viloyati IIB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi tartibot ishchi guruhi tarbiyachisi, katta ser-

jant Sarvinoz Safarova o'z ahdiga sodiq qolgan holda, siniq taqdirlar kemtiginini yamash, adashgan yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash yo'lida fidokorona xizmat qilib kelmoqda.



O'tgan yillar davomida Markazga hayotda adashgan, qarovsiz va nazoratsiz qolgan, to'g'ri yo'ldan chalg'ib, nosog'lom muhitga tushib qolgan ko'plab qorako'zlar keltirildi. Katta serjant S.Safarova dastlab ularning oilaviy sharoiti va ruhiyatini sinchiklab o'rgandi, so'ngra har bir bolaga mehr ko'rsatib, ularni hunar o'rganishga, kelajak haqida ezgu orzular qilishga undadi.

– Markazimizda tikuvchilik, pazandalik, sartaroshlik, ustachilik va musiqa kabi turli to'garaklar faoliyat yuritadi, – deydi katta serjant Sarvinoz Safarova. – Bolalar bu to'garaklarda foydali mehnat bilan band bo'lishadi, muayyan bir hunarni o'rganishadi. Xulq-atvorida muammolari bo'lgan ayrim tarbiyalanuvchilar aynan to'garak mashg'ulotlari orqali hayotga boshqacha nigoh bilan qarashni, o'z qobiliyatlarini kashf etishni o'rganadi.

**UMID UCHQUNLAYDI
UCH QIZ KO'ZIDA**

Lavhamiz qahramoni taqdir sinovlariga duch kelgan uch nafar qizni o'z qaramog'iga olgan. Ulardan birining ota-onasi barvaqt hayotdan ko'z yumgan bo'lsa, yana ikki nafarining onasi jazo muddatini o'tayotgani sababli chin mehr va e'tiborga muhtoj edi. Sarvinoz Safarova ularni o'z farzandlaridek bag'riga bosib, ta'lim-tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratdi. Bugungi kunda ushbu qizlar bilim olishga intilib, yutuqlarga erishmoqda. Eng muhimi, ular er-

tangi kunga ishonch bilan qarashni o'rgandilar.

– Turmush o'rtog'im ham ichki ishlar organi xodimi bo'lgani uchun meni to'g'ri tushunadi va qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, qaynona va qaynotam bu qarorimni ma'qullab, ham o'z farzandlarimning, ham bag'rimizga olgan uch nafar qizning tarbiyasida yaqindan ko'makdosh bo'lishmoqda, – deydi u faxr bilan.

**MEHRIBON TARBİYACHI,
HAQIQIY ONA**

O'n yetti yildan buyon bolalar bilan birga bo'lib kelayotgan katta serjant Sarvinoz Safarova uchun tarbiyachilik shunchaki kasb yoki xizmat vazifasi emas, balki hayotiy e'tiqoddur. Uning nazdida har bir bola ikkinchi imkoniyatga, mehrga loyiq. Shu bois u markazga kelgan har bir voyaga yetmaganing qalbiga yo'l topishga intiladi.

Sarvinoz Safarova nafaqat xizmat burchini sidqidildan bajarmoqda, balki ko'plab bolalar uchun mehribon tarbiyachi va haqiqiy ona timsoliga aynanib ulgurgan.

Uning fidokorona mehnati IIV rahbariyati tomonidan munosib e'tirof etilgan. O'tgan yili «Ichki ishlar organlarida benuqson xizmatlari uchun» III darajali ko'krak nishoni bilan taqdirlangani buning yaqqol isbotidir.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz



QO'SHSAHIFADA —

Tinchlik va osoyishtalik o'z-o'zidan bo'ladigan ne'mat emas. U har kuni, har bir mahalla-yu xonadonda qilinayotgan mashaqqatli va tizimli mehnat, qat'iy tartib-intizom hamda ulkan mas'uliyat samarasidir. Zero, inson o'zini xavfsiz his qilgan jamiyatdagina taraqqiyot bo'y ko'rsatadi, bunyodkorlik muhiti mustahkamlanib, ertangi kunga ishonch ortadi.

Xorazm viloyatida joriy yilning o'tgan davri davomida aynan mana shu ustuvor tamoyillar asosida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Faoliyatning ushbu davriga bag'ishlangan hisobot yig'ilishida har bir yo'nalish tanqidiy tahlil qilinib, mavjud muammolar ochiq muhokama etildi. E'tiborlisi, barcha kuch va vositalar asosan jinoyat oqibatlariga qarshi kurashishga emas, balki ularning barvaqt oldini olishga safarbar etilgani ta'kidlandi.

OSOYISHTALIKNING ISHONCHLI KAFOLATI

Hisobot davrida viloyatda 2 ming 723 ta jinoyat qayd etilgan. Tahlillar ularning 56 foizdan ortig'i axborot texnologiyalaridan foydalanigan holda sodir qilinganini ko'rsatdi. Bu esa jinoyatchilik tobora raqamli makonga ko'chayotganini anglatadi. Shu bois xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar, kuchli profilaktika va manzilli ishlashga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Hududlar kesimidagi tahlillar asosida kriminogen vaziyat chuqur o'rganilib, hudud rahbarlari, profilaktika inspektorlari hamda mu'tasaddi tashkilotlar ishtirokida aniq chora-tadbirlar belgilandi. Zero, asosiy mezon jinoyatlar statistikasi emas, balki ularning oldini olish



Urganch shahar «Navbahor» mahallasi yettiligi bilan ish jarayonida.

borasida erishilgan natijalardir.

Ko'rilgan choralar samarasida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar 6,6 foizga kamaydi. Firibgarlik 43 foiz-

ga, o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish holatlari 40 foizga, yo'l-transport hodisalari esa qariyb 29 foizga qisqardi. Ayrim turdagi jinoyatlar umuman sodir etilmagani profilak-

tika ishlarining samaradorligini tasdiqladi.

Ayni paytda talonchilik, bezorilik, o'g'irlik va oilaviy zo'ravonlik kabi yo'nalishlarda vazifalarimiz hali ham

dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada har bir holat tanqidiy tahlil qilinib, mas'ul rahbarlarning shaxsiy javobgarligi kuchaytirildi.

Biz uchun eng muhim natija – shunchaki jinoyatlarni fosh etish emas, balki fuqarolarning davlatga, qonun ustuvorligiga ishonchini mustahkamlashdir. Chunki xavfsizlik statistika bilan emas, xalqning osoyishta hayoti va ertangi kunga ishonchi bilan baholanadi. Shu maqsad yo'lida profilaktika, ochiq muloqot hamda jamoatchilik bilan yaqin hamkorlik bundan buyon ham faoliyatimizning bosh mezonini va ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Abdumajid SHERMUXAMEDOV,
Xorazm viloyati IIB
boshlig'i, polkovnik.

Tahlil

YANGICHA TARAQQIYOT FORMULASI

Har kuni yuzlab, har oyda minglab, har yili esa millionlab sayyohlar Xorazm vohasiga tashrif buyuradi. Ularni qadimiy tarix, betakror me'morchilik namunalari va sharqona mehmondo'stlik jalb qiladi. Shu o'rinda, sayyohning taassurotlari faqat tomosha qilgan obidasi bilan emas, balki o'zini qanchalik xavfsiz his etgani bilan ham belgilanadi.

2021-yilda viloyatga 1 million 294 ming nafar sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2025-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 12 million 428 ming nafarga yetdi. Bu esa xalqaro turizm xaritasida Xorazmning o'zni tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolatdir.

Turizm rivojlanar ekan, infratuzilma ham shunga mos ravishda kengaymoqda. Bugungi kunda viloyatda 318 ta mehmonxona faoliyat yuritmoqda. Holbuki, 2025-yilda ularning soni 256 tani tashkil etgan edi. Bir yil ichida 62 ta yangi mehmonxona ish boshlashi sayyohlar oqimining ortishi bilan bog'liq ehtiyojning yaqqol ifodasidir.

Xorazm nafaqat tarixiy merosi, balki zamonaviy turizm xizmatlari bilan ham e'tibor qozonmoqda. Viloyatda 141 ta turistik firma, 320 nafar gid-tarjimon va o'nlab ekskursovod faoliyat yuritmoqda. Bu esa xorijiy mehmonlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, 2025-yilda foydalanishga topshirilgan «Arda Xiva» turistik majmuasi viloyat turizmining yangi

ramziga aylandi. Qariyb 26 gektar maydonda bunyod etilgan ushbu majmua mehmonxonalar, amfiteatr, akvaparklar, restoranlar, hunarmandlar uylari va zamonaviy dam olish maskanlarini o'zida jamlagan.

Biroq millionlab sayyohlarni jalb etishning o'zi yetarli emas, ularning xavfsizligi ham muhim. Shu maqsadda bu yerda 404 ta videokuzatuv kamerasi, yuzni aniqlash tizimlari va boshqa zamonaviy xavfsizlik vositalari joriy qilingan.

Shu nuqtayi nazardan, viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Joriy yilning o'tgan davrida boshqarma xodimlariga 22 mingdan ortiq sayyoh turli masalalarda murojaat qilgan. Ularning aksariyatiga yo'nalish ko'rsatish, xizmatlardan foydalanish, huquqiy tushuntirish va boshqa masalalarda amaliy yordam berilgan. O'nlab holatlarda tibbiy yordam ko'rsatilib, sayyohlarning muammolari joyida hal etilgan.

Boshqarma xodimlari tomonidan yil boshidan buyon mingga yaqin pro-



filaktik tadbirlar o'tkazildi. Mehmonxonalar, turfirmalar, gid-tarjimonlar va xizmat ko'rsatish sohasi vakillari bilan muntazam uchrashuvlar tashkil etildi. Natijada Xorazm nafaqat sayyohlarni jalb qilayotgan hudud, balki ular uchun xavfsiz va qulay muhit yaratilgan manzilga ham aylanmoqda.

Bugungi kunda viloyatga eng ko'p tashrif buyurayotgan sayyohlar qatorida Italiya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya, Turkiya va Yaponiya kabi mamlakatlarning fuqarolari borligi

bejiz emas. Xorazmning boy tarixi, lchan-qal'a singari noyob yodgorliklar majmualari, zamonaviy turizm infratuzilmasi hamda xavfsizlik tizimi o'zaro uyg'unlashib, hududning xalqaro jozibadorligini oshirmoqda. Xorazm bugun aynan shunday, turizm barqaror rivojlanayotgan hududga aylanmoqda. Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi faoliyati esa bu jarayonda sayyohlar ishonchi va hudud nufuzini mustahkamlovchi muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda.

XORAZM VILOYATI

Mahalla posboni

KO'ZGA KO'RINMAS MEHNAT MEVASI

Profilaktika inspektorining eng katta yutug'i jinoyatchi-ni qo'lga olish emas, balki jinoyat sodir etilishiga aslo yo'l qo'ymaslikdir. Zero, osoyishtalik o'z-o'zidan bir kunda yara-lib qolmaydi. U har kuni odamlar dardi bilan yashash, har bir oilaning tashvishiga quloq tutish va muammolarni o'z vaqtida hal etish orqali bunyod bo'ladi.



Tuproqqal'a tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi profilaktika inspektori, katta leytenant Bobomurod Ro'ziboyev ana shunday yuksak mas'uliyatni o'z faoliyatining bosh mezoniga aylantirgan fidoyi xodimlardan biridir. Oilali va ikki nafar farzandning otasi bo'lgan Bobomurod Ro'ziboyev ayni paytda tumandagi «Nukus maskani» mahallasida joylashgan xizmat uyida istiqomat qiladi.

Oila va xizmat mas'uliyatini uyg'un olib borayotgan profilaktika inspektori bugun o'zi faoliyat olib

borayotgan mahallaning tinchligi uchun astoydil mehnat qilmoqda. Yillar davomida to'plangan boy tajriba esa uning kasbiy faoliyatida muhim tayanch bo'lmoqda. «Nukus maskani» mahallasidagi 1750 nafar aholining 95 foizini turkman millatiga mansub fuqarolar tashkil etadi. Viloyat markazidan qariyb 150 kilometr uzoqlikda joylashgan ushbu hududda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash alohida mas'uliyat talab qiladi.

Prezidentimizning tegishli qarori ijrosini ta'minlash doirasida mahalla yetiligi bilan yaqin hamkor-

likda tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. O'tgan davr mobaynida hududda 119 ta xulosa tayyorlanib, ular asosida ko'plab huquqbuzarlik va jinoyatlarning barvaqt oldi olindi. Bu esa profilaktikaning shunchaki qog'ozdagi hujjat ko'rinishida qolmay, balki amalda o'z natijasini berayotganini ko'rsatadi.

Mahalladagi ijtimoiy muammolar ham doimiy diqqat markazida. Oilaviy nizolar kuzatilgan 6 nafar xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirilib, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilindi. Muqaddam sudlangan ikki nafar shaxsga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilib, ular bilan muntazam ravishda profilaktik suhbatlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, hududda spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan ikki nafar fuqaro tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatning oldi olindi. Ular Xorazm viloyati narkologiya dispanserining majburiy davolash bo'limiga joylashtirildi.

Bugun katta leytenant Bobomurod Ro'ziboyev nafaqat o'z xizmat vazifasini bajarayotgan xodim, balki mahallaning chinakam maslahatchisi, oilalarning ishonchli suyanchi, yoshlarning yo'l ko'rsatuvchisi va eng muhimi, hududning fidoyi tinchlik posboniga aylangan. Zero, u ta'minlayotgan osoyishtalik ortida har kuni odamlar quvonch-u tashvishi bilan birga yashashdek ulkan ba ko'rinmas mehnat yotibdi.

Mustaqillik tengdoshlari

YAQIN KO'MAKCHI



Mustaqillik tengdoshi – kapitan Zuhra Alnazarova bugun o'zi ulg'aygan hududda Vatan tinchligi va yoshlar kelajagi yo'lida sidqidildan xizmat qilmoqda.

...Qizning qo'lida bir quti dori bor edi. Nigohida yashashga ishtiyoq emas, kuchli ruhiy charchoq aks etardi. Atrofdagilar buni payqamagan bo'lishi mumkin. Ammo holatni anchadan beri kuzatayotgan bir inson sezdi.

– Qani, avval gaplashib olaylik...

Bu oddiy taklif edi. Biroq aynan shu suhbat bir yoshning taqdirini o'zgartirdi. Oradan biroz vaqt o'tdi. O'sha qiz hayotda qolishni tanladi...

Urganch shahar IIB 1-son IIB JXX HPG profilaktika inspektori, kapitan Zuhra Alnazarova o'ziga birlashtirilgan Urganch davlat universitetida yoshlarning muammolarini hal etishda yaqin ko'makdoshga aylangan.

Universitetda minglab yoshlar o'z quvonch-u tashvishlari, orzulari va muammolari bilan yashaydi. Kapitan Z. Alnazarova har kuni ana shu yoshlar orasida yurib, ularning dardini vaqtida anglashga harakat qiladi. Ba'zan bitta ogohlantirish, ba'zida bitta samimiy maslahat, gohida shunchaki dildan suhbat bilan dalda bo'ladi.

Kasb fidoyilari

HAYOT TARZIGA AYLANGAN FAOLIYAT

Har bir kasbning jamiyat oldidagi mas'uliyati turlicha. Shifokor inson hayoti uchun kurashadi. O'qituvchi kelajak avlodni tarbiyalaydi. Quruvchi binolar bunyod etadi. Ammo shunday kasb ham borki, u jamiyatdagi eng nozik tushuncha – adolatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bu – tergovchilik kasbi. Tergovchini ko'pchilik jinoyat sodir bo'lganidan keyin ish boshlaydigan mutaxassis deb biladi. Aslida esa uning vazifasi bundan ancha keng, zimmasidagi mas'uliyati zalvorli.

Tergovchi voqeani faqat huquqiy tomondan emas, insoniy, ijtimoiy va ruhiy jihatdan ham tahlil qiladi. Chunki jinoyat hech qachon birgina qilmishdan iborat bo'lmaydi. Uning ortida sabablar, oqibatlar, taqdirar va ba'zan butun bir oilaning fojiasi turadi. Shu bois, tergovchining har bir qarori katta mas'uliyat talab qiladi. Uning shoshqaloqlikka ham, hissiyotga ham berilishga haqqi yo'q. Eng yaqin tayanchi – qonun, eng ishonchli hamrohi esa dalildir.

Urganch tumani IIB huzuridagi tergov guruhi katta tergovchisi, mayor Jalolbek Babajanov bilan muloqotda aynan shu fikrlarning nechog'liq hayotiy ekaniga yana bir bor amin bo'ldik. U o'z faoliyati haqida gapirar



ekan, ochgan jinoyatlari yoki erishgan yutuqlarini sanab o'tmadi, balki tergovchining zimmasidagi mas'uliyat haqida ko'proq so'z yuritdi. Bu esa kasbga munosabat avvalo ichki e'tiqoddan boshlanishini anglatadi.

Kasbni emas, mas'uliyatni tanlagan xodim Jalolbek Babajanov tergov sohasida o'n yildan ortiq xizmat qilib kelmoqda. Bu vaqt davomida u turli xarakterdagi odamlar bilan ishladi, murakkab jinoyat ishlarini tergov qildi, turli taqdirarga guvoh bo'ldi. Ana shu

tajriba unga bitta haqiqatni o'rgatdi: tergovchilikni faqat kasb sifatida qabul qilib bo'lmaydi.

– Agar bu ishni lavozim deb bilganimda, ehtimol, mazkur sohada uzoq ishlay olmagan bo'lardim. Tergovchilik – avvalo mas'uliyat, shu bilan birga mening hayot tarzimga ham aylangan, – deydi u.

Bu fikr bejiz aytilmagan, chunki tergovchining ish kuni kabinet eshigi

yopilishi bilan tugamaydi. U har bir ishni qayta-qayta tahlil qiladi, dalillarni solishtiradi, xulosalarini yana bir bor sinchiklab ko'zdan kechiradi. Negaki, birgina xato kimningdir taqdiriga ta'sir etishi mumkin. Tergov amaliyotida ko'p hollarda bir qarashda aniq tuyulgan voqea aslida mutlaqo boshqacha bo'lib chiqadi. Shuning uchun Jalolbek har bir ishni ilk taassurot bilan emas, dalillar asosida o'rganishni o'ziga qoida qilib olgan.

Uning fikricha, yaxshi tergovchiga xos eng muhim jihatlari – voqealarni mantiqiy tahlil qila bilish, kuzatuvchanlik va sabrdir. Faoliyatidagi firibgarlik bilan bog'liq bir jinoyat ishida ham aynan shu tamoyil natija berdi. Dastlab guvohlarning ko'rsatmalari muayyan yo'nalishga ishora qilayotgandek edi. Ammo tergov davomida o'tkazilgan tintuv vaqtida topilgan audioyozuvlar voqeaning butunlay boshqa manzarasini ochib berdi. Yashirilayotgan haqiqat dalillar orqali isbotlandi. Bu holat yana bir haqiqatni tasdiqladi: tergovchining eng katta kuchi gumon qilishida emas, isbotlay olishidadir.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Nilufar JABBOROVA tayyorladi.

Luqma

BANOGOH O'YLANIB QOLDIM...

Taksida «Chorsu» bozoridan qaytayotgan edim. Yonimizdan kelayotgan mashina qizil chiroqda «g'iz» etib o'tib ketdi. Men hayron bo'lib haydovchiga qaradim.

– Bu yerda kamera yo'q. Shuning uchun ba'zi «uchar»lar piyoda bo'lmasa, o'tib ketaverishadi, – «izoh» bergan bo'ldi haydovchi.

– Kamera bo'lmasa, o'pkasi yo'qlarning vijdoni ham yo'qmi, bolam? – xunobl chiqdi orqa o'rindiqda o'tirgan otaxonning.

– Doda, vijdoni bor-u, uxlab yotibdi, – kesatdi haydovchi. – Ilgari bosar-tusarini bilmay qolganlar kamera bo'lsa ham, qizil chiroqda o'tib ketaverishardi.

Ular jarima to'lashdan ham cho'chimasdi. Bundaylarga pul pista po'chog'iday gap. Endi haydovchilik guvohnomasidan ayrilib qolishini o'ylab, o'zlarini tiyishyapti.

– Ha, hammaga ham Xudo insof bersin, – dedi nuroniy.

– To'g'ri aytasiz otaxon, – deya qariyaning gapini ma'qulladim.

Maqullashga-ku ma'qulladim-u, lekin banogoh o'zim o'ylanib qoldim. Masalan, piyodalar yo'lagidan ko'chani narigi tarafiga o'tmoqchiman. Agar menga qizil chi-



roq yonib turgan bo'lsa, lekin ko'chada bitta ham mashina bo'lmasa, nima qilaman: yashil chiroq yonishini kutib turamanmi yoki shartta yo'lni kesib o'tamanmi? Yoki deylik, chekib bo'lgan sigaretaning qoldig'ini duch kelgan joyga tashlab ketamanmi yoki axlat qutisi duch kelmagunicha olib yuraveramanmi? Yo'lni belgilanmagan joyidan kesib o'tmoqchi bo'lsam-u, nariroqda yer osti yo'lagi borligini eslab qolsam, nima qilaman?

Hozirgina «uchar» yo'lovchini aybladim, lekin o'zimning vijdonim uyg'oqmi? Sizning vijdoningiz-chi?

Bobomurod TOSHEV

Jinoyat va jazo

TADBIRKOR NIQOBIDAGI FIRIBGAR

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, xususiyl mulk daxlsizligini ta'minlash hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mahalliy va xorijlik investorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilib, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Afsuski, yaratilgan bunday imkoniyatlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishga urinuvchi shaxslar ham uchrab turibdi. Xorijlik fuqaro L.Yu. (ism-shariflar o'zgartirildi) ana shunday kimsalardan biri bo'lgan. O'zini investor va ishonchli biznes hamkor sifatida tanishtirgan ushbu shaxs yillar davomida tadbirkorlik niqobi ostida mahalliy ishbilarmonlarning mol-mulki hamda pul mablag'larini firibgarlik yo'li bilan o'zlashtirish bilan shug'ullanib kelgan.

U dastlab Shumanay tumanida faoliyat yurituvchi xususiy korxona rahbari A.Adhamovning qizilmiya ildizini eksport qilish rejasi borligidan xabar topadi va bu borada yordam berishni va'da qiladi. Tomonlar o'rtasida kelishuvga erishib, 2016-yil kuzida korxona tomonidan Janubiy Koreyaning «N-Pharm» kompaniyasiga qiymati 12 ming AQSH dollariga teng bo'lgan 24 tonna qizilmiya ildizi eksport qilinishini tashkillashtiradi.

Biroq mahsulot uchun xorijdan o'tkazilgan pul mablag'ini shaxsan o'zi qabul qilib olib, manfaatlari yo'lida ishlatib yuboradi.

Oradan bir oy o'tib, L.Yu. jinoiy harakatlarini davom ettirib, korxona hamda xorijning «Commercu» kompaniyasi o'rtasida qizilmiya yetkazib berish bo'yicha navbatdagi shartnomani rasmiylashtiradi. Ushbu kelishuvdan olingan pul mablag'i ham mahalliy korxona hisobiga emas, balki firibgarning cho'ntagiga borib tushadi.

Xorijlik «tadbirkor» bu bilan to'xtab qolmaydi. U A.Adhamovni qizilmiya ildizini qayta ishlash zavodi qurish va'dasi bilan yana aldab, undan 69 million so'm mablag'ni firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritadi. Bundan tashqari, o'zining mas'uliyati cheklangan jamiyati orqali korxonadan qiymati 30 million so'mlik xomashyoni qabul qilib oladi. Ammo mahsulot uchun haq to'lamasdan, turli

bahonalarni ro'kach qilib, qarzdorlikni uzish masalasini paysalga solib keladi.

Surishtiruvlar davomida L.Yu.ning chimboylik tadbirkor Q.Jetesbayevni ham chuv tushirgani ma'lum bo'ldi. Tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq, u qariyb 400 million so'mlik qizilmiya ildizini qabul qilib olgan va bu gal ham mahsulot haqqini to'liq to'lamay, tadbirkorga juda katta miqdorda moddiy zarar yetkazgan.

Nafs girdobiga botgan L.Yu. keyinchalik yana bir tadbirkor bilan yengil avtomobillarni ijaraga olish bo'yicha shartnoma tuzadi. So'ngra avtomashinalardan bankdan kredit olishda garov sifatida foydalanib, ijara to'lovlarini amalga oshirmaydi. Oqibatda tadbirkorga 172 million so'm miqdorida moddiy zarar yetkazadi. U shu yo'sinda yana bir necha fuqarolarning ishonchiga kirib, ularning juda ko'p miqdordagi pul mablag'larini o'zlashtirib yuboradi.

Har qanday jinoyatning ertami-kechmi fosh bo'lishi muqarrar. Xorijlik soxta tadbirkorning noqonuniy qilmishlariga ham chek qo'yildi.

Unga nisbatan tegishli moddalar asosida jinoyat ishi qo'zg'atilib, ish sud-da ko'rib chiqildi. Sud hukmiga ko'ra, aybdorga qonun doirasida tegishli jazo

tainlandi. Shuningdek, jabrlangan tadbirkorlarga yetkazilgan moddiy zararlarni to'liq qoplash choralari belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, bunday salbiy holatlar nafaqat tadbirkorlarga katta miqdorda moddiy zarar yetkazadi, balki sog'lom investitsiya muhiti, ishbilarmonlik munosabatlari va o'zaro ishonchga ham putur yetkazadi. Shu bois tadbirkorlar biznes hamkorlikni boshlashdan oldin bo'lajak sherikning huquqiy maqomi, moliyaviy holati va ishonchligini sinchiklab o'rganishi zarur. Shuningdek, tuzilayotgan shartnomalarning huquqiy asoslari, mablag'larni himoya qilish mexanizmlari va tomonlarning majburiyatlariga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, kelishuvlarni amalga oshirishda tajribali yuristlar maslahatiga tayanish ehtimoliy xatarlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Umida ORAZBAYEVA,
podpolkovnik.
Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

*Qoraqalpog'iston
Respublikasi.*



Грани сотрудничества

СОВЕРШЕСТВОВАНИЕ СЛУЖБЫ

В городе Коканде прошел семинар-тренинг для инспекторов профилактики на тему «Международные стандарты в области прав человека и национальное законодательство».



Очередное мероприятие, организованное Национальным центром Республики Узбекистан по правам человека и МВД, собрало представителей городских и районных ОВД Ферганской области. Его ключевая задача – углубление знаний в области единых стандартов защиты прав граждан, современных подходов предупреждения правонарушений.

В своих выступлениях спикеры сделали акцент на ключевых аспектах обеспечения законности и правопорядка. Профессор Ташкентского государственного

юридического университета Феруза Мухитдинова осветила тему защиты чести и достоинства человека как высшего долга государства и общества. Главный специалист Национального центра Хусниддин Холматов представил разбор положений Конвенции о правах инвалидов и показал ее практическое значение в повседневной деятельности инспекторов. Программа также включила рассмотрение стандартов работы с обращениями граждан.

– Перед органами внутренних дел стоят приори-

теты по трансформации деятельности инспекторов профилактики, – подчеркнул доцент Академии МВД подполковник Умид Фозилов. – На семинаре проанализированы поручения, изложенные Президентом 29 июня 2026 года на совещании, посвященном коренному улучшению их деятельности. Глава государства обозначил необходимость укрепления правового статуса инспекторов, внедрения в процесс подготовки кадров таких инновационных практик, как анализ рисков, цифровые технологии, профайлинг. Полученные участниками знания будут способствовать эффективной реализации задач на местах.

Рафик ЕНИКЕЕВ

ОБЪЕДИНЯЯ УСИЛИЯ

С 30 июня по 30 июля проходит акция «30 дней в партнерстве против торговли людьми», приуроченная к Всемирному дню борьбы с этим глобальным злом.



Представители «Istiqbolli Avlod» проводят очередное мероприятие в Зангиатинском районе Ташкентской области.

Мероприятия организуют Национальная комиссия по вопросам противодействия торговле людьми и достойного труда, МВД, МИД, Министерство занятости и сокращения бедности,

другие заинтересованные организации в тесном взаимодействии с институтами гражданского общества. В авангарде работы – Республиканский социально-информационный центр «Istiqbolli Avlod».

Цель – привлечение внимания к проблеме торговли людьми, координация усилий по оказанию помощи пострадавшим. Задача – не просто выявление противоправных деяний, но и возвращение к полноценной жизни.



Развернута масштабная просветительская кампания. В цифровой среде – социальных сетях, на сайтах ведомств и ННО – публикуется наглядная инфографика. Особое внимание уделено центрам временного обеспечения работой, объектам транспортной инфраструктуры. Трансляция тематических видеороликов организована в автобусах, поездах. Эти локации выбраны неслучайно. Здесь граждане могут оперативно получить необходимую информацию, узнать контакты горячих линий.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

Безопасная и здоровая страна

ПРЕСЕЧЕНА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ «ЗАКЛАДЧИКОВ»

В рамках оперативно-профилактических мероприятий в Бектемирском районе города Ташкента пресечена деятельность так называемых «закладчиков».



При несении службы на территории махалли Ийк-ота наряд ППС обратил внимание на двоих граждан. В ходе проверки и последующего личного досмотра, проведенного в присутствии понятых, у них было

обнаружено 43 пакетика с расфасованными наркотическими средствами, готовыми к реализации. По данному факту возбуждено уголовное дело по ч. 5 ст. 273 УК. В отношении фигурантов избрана мера пресечения в виде заключения под стражу.

В ходе специальных мероприятий, направленных на выявление лиц, причастных к незаконному обороту наркотических средств и психотропных веществ, оперативниками УКД ОВД района задержано еще одно лицо. При личном досмотре у гражданина обнаружено 15 расфасованных пакетиков с наркотическими средствами, которые изъяты в качестве вещественных доказательств. Следственными органами возбуждено уголовное дело, подозреваемый заключен под стражу.

Органы внутренних дел напоминают: жесткий заслон распространению зелья – залог спокойствия и здоровья нашего общества.

НА ВЪЕЗДЕ В СТОЛИЦУ...

Сотрудники СБДД в ходе ночного дежурства на стационарном посту «Шарк» остановили для проверки автомобиль Nexia-3, направлявшийся в столицу из Ташкентской области. Внимание правоохранителей привлекли находившиеся в салоне пассажиры, чье поведение вызвало подозрения.

В ходе личного досмотра у одного из пассажиров обнаружена зажимка, к которой было прикреплено вещество, по визуальным признакам напоминающее наркотическое средство. Пассажир признался, что приобрел данное вещество через мессенджер Telegram, утверждая при этом, что оно предназначалось исключительно для личного потребления, а не для дальнейшего распространения.

По данному факту оформлены необходимые процессуальные документы, после чего задержанный и собранные материалы были переданы в отдел внутренних дел для дальнейшего разбирательства.

Соб. корр.

Руководство, личный состав и Совет ветеранов МВД Республики Узбекистан извещают о кончине полковника в отставке

ДЖУРАЕВА Анатолия Меликовича

и выражают искренние соболезнования родным и близким покойного.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

► **Safe tourism****A NEW LEVEL**

Charvak reservoir in Tashkent region is one of Uzbekistan's largest tourist destinations, attracting thousands of holidaymakers during the summer season. Therefore, in accordance with a relevant Cabinet of Ministers resolution, additional measures have been introduced to strengthen safe tourism in the area.

Notably, Uzbekistan's first specialized unit dedicated to ensuring safety at water facilities

has been established in Bostanliq district. Its primary responsibilities include maintaining public order around Charvak reservoir and adjacent areas, monitoring water transport, and ensuring the safety of tourists.

During the summer season, the area receives up to 100,000 visitors and nearly 40,000 vehicles each day. At present, 215 watercraft operate on the reservoir. To effectively manage this high volume of activity, modern surveillance systems are being expanded step by step.

According to lieutenant Rozmat Azimjonov, senior inspector of the Water facilities safety unit of the Safe tourism department under the Bostanliq district DIA, the number of PTZ cameras, automatic license plate recognition cameras, and facial recognition cameras is being increased. This will enable real-time monitoring of the area and further strengthen Bostanliq district's reputation as a safe destination for both domestic and international tourists.

► **A second talent****ART IN HARMONY WITH SERVICE**

Senior lieutenant Dilshodbek Khamroev, Senior inspector of the Educational Work Department at penal colony № 12 (Fifth regional district, MIA Department for the execution of punishments), regularly organizes educational events to enhance inmates' legal awareness and moral outlook. Through individual counseling, he fosters respect for the law and aids their social reintegration based on humanistic principles. He views guiding rehabilitation, building self-confidence, and helping inmates return to society as decent citizens as his core duty.

Dilshodbek's passion for art began in childhood, leading him to study at the Navoiy College of Arts and Culture. His father

led the regional "Nihol" orchestra for years, and Dilshodbek practiced his first melodies on a toy rubab. Meanwhile, his



mother's military career instilled in him early discipline, responsibility, and patriotism.

Following his heart, Dilshodbek chose his mother's path. Though his 2016 attempt to

enter a higher military academy failed, he didn't give up. After completing his mandatory service in Military Unit 7531 of the MIA Guard Troops, he continued serving under contract.

Hard work and perseverance paid off when he was admitted to the Academy of the Ministry of internal affairs. His love for art endured; the rubab became his constant companion. Today, he regularly performs national melodies at ministerial contests and events, uplifting his colleagues' spirits.

In his view, music enriches the soul, while service tempers the will. Senior Lieutenant Khamroev has successfully harmonized both fields, dedicatedly fulfilling his duties while cherishing national musical art.

**Lieutenant Dilafruz Akhmedova
inspector Main department of
Internal affairs of Tashkent city:**

– On 4 July this year, I experienced an unforgettable moment that will remain with me for the rest of my life. During his visit to Sergeli District, the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, reviewed the ongoing efforts to digitalize the public administration system. On that occasion, I had the honor of presenting the capabilities of the online application terminal



developed on the President's instructions for the Ministry of internal affairs, the Tashkent city Main department of internal affairs, and their regional divisions.

Demonstrating the operation of this innovative system to the President was a great responsibility. The confidence placed in me by the leadership of the Ministry of internal affairs, especially the words of encouragement from our minister, gave me the strength and confidence to successfully fulfill this task.

Following the presentation, the President highly appreciated the terminal's convenience and functionality and instructed that it be installed in markets and other crowded public places to make government services more accessible to citizens.

This meeting became not only a great honor but also a valuable lesson in responsibility for me. As a representative of the new generation of New Uzbekistan's internal affairs officers, I regard it as my highest duty to justify the trust placed in me through dedicated service, integrity, and unwavering commitment to my professional responsibilities.

► **«Safe and Prosperous Nation»****UNITY AS A KEY DRIVER OF EFFICIENCY**

Tashkent City: The Security Service under the Mirobod District Coordination Department of Internal Affairs is systematically working to ensure a secure environment. Surveillance has been intensified 24/7 in crowded public areas, educational institutions, and commercial sites. Newly established rapid response teams ensure immediate intervention in critical situations and citizens' grievances. The deployment of continuous public video surveillance facilitates early threat detection and crime prevention. Furthermore, community outreach continues to brief residents and businesses on securing premises through modern alarm systems and emergency reporting procedures.

Bukhara Region: Internal affairs agencies are executing targeted preventive operations to curb juvenile delinquency and counter the illicit trafficking of narcotics and psychotropic substances. Key focus areas also include the early detection and prevention of domestic violence, ensuring road safety, mitigating factors contributing to traffic accidents, and combating illegal migration.

Qashqadaryo Region: High-level institutional and public cooperation yielded significant results across nearly 700 operational-search measures during a month-long campaign. Law enforcement detected 280 cases of corruption, 246 organized crime offenses, 72 counter-terrorism violations, and 52 drug-related crimes. Discovered and seized from illicit circulation were 881 grams of narcotics, 650 illicit cultivated plants, 117 psy-



chotropic pills, 121 pieces of ammunition/firearms, and 3 illegal gambling dens were dismantled. Additionally, 16 wanted fugitives were apprehended, and 7 missing persons were located and reunited with their families. To counter cybercrime, the Regional internal affairs Department launched the «Safe Internet Assistant» Telegram bot, engaging over 1.6 million citizens.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz



INSONNI KIM KUZATIB TURADI?

Psixologik immunitet va korrupsiya xuruji

Inson doimo kimningdir nazoratini his qilishga moyil. Bolalikdanoq: «kimdir meni ko'rib turibdi», «kimdir bilsa-chi» degan hadik orqali tarbiyalanadi. Ammo inson ulg'aygan sari bir savol murakkablashadi:

Agar hech kim ko'rmayotgan bo'lsa, inson kimga qarab to'g'ri qaror qabul qiladi?

Odatda korrupsiya tashqi kuzatuv yo'q joyda, ichki nazorat susaygan paytda paydo bo'ladi. Angliya universitetlarida o'tkazilgan tajribalarda oshxonaga ixtiyoriy to'lov qutilari qo'yilgan. Bir holatda devorda gul rasmi, boshqa holatda esa inson ko'zlari tasviri osilgan. Natija esa hayratlanarli bo'lgan: ko'z tasviri turgan paytda odamlar ancha ko'proq to'lov qilgan. Bu holatda shu narsa ayon bo'ladiki, inson ongi «ko'rinib turibman» degan signalni qabul qilganda o'z xulqini avtomatik tarzda nazorat qila boshlaydi. Psixologiyada bu «kuzatuv effekti» deb ataladi. Biroq muhim savol paydo bo'ladi: **Agar tashqi kuzatuv bo'lmasa-chi?** Tashqi kuzatuv yo'qolgan joyda insonni uning ichki nazorat tizimi boshqaradi. Psixologiyada bu holat «**ichki nazorat lokusi**» deb ataladi.

Bu insonning qarorlarini tashqi bosimga emas, o'z qadriyatlar va vijdoniga tayanib qabul qilish qobiliyatidir.

Aynan shu yerda hal qiluvchi farq paydo bo'ladi:

tashqi nazorat bo'lsa – inson intizomli bo'ladi.

ichki nazorat kuchli bo'lsa – inson halol bo'ladi.

Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurash faqat nazoratni kuchaytirish emas, balki insonning ichki barqarorligini mustahkamlash masalasidir.

Zamonaviy psixologiya korrupsiyani bir zumda yuzaga keladigan harakat sifatida emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida tushuntiradi.

Avval inson fikr darajasida kichik o'zgarishni qabul qiladi:

«**bu bir marta**»
«**buning zarari yo'q**»
«**hamma shunday qiladi**»

Keyin esa harakatda ham kichik chekinishlar boshlanadi. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayon «**sirg'aluvchan**



inson ko'pincha boshqalarni emas, avvalo o'zini ishonitirishga harakat qiladi.

Kriminologiyada mashhur bo'lgan «**siniq oyna nazariyasi**» bor. Unga ko'ra, agar muhitda kichik tartibsizliklar e'tiborsiz qolsa, vaqt o'tishi bilan kattaroq qoidabuzarliklar ham oddiy holatga aylanadi. Bu qonuniyat inson

«**bu bir marta**»
«**buning zarari yo'q**»
«**hamma shunday qiladi**»

qiyalik effekti» deb ataladi. Uning mohiyati shundaki, inson axloqiy chegarani bir marta yengil bosib o'tsa, keyingi bosqichlar osonlashib boradi. Neyropsixologiyada inson miyasi haqida muhim xulosa bor: inson o'zini doimo yaxshi inson deb qabul qilishga intiladi.

Agar uning harakati bu tasavvurga zid kelsa, miya ichki ziddiyatni yumshatish uchun «oqlovchi fikrlar» ishlab chiqaradi. Bu holat «**kognitiv dissonans**» deb ataladi. Shunda inson:

«**bu qoidabuzarlik emas**»
«**bu xizmat haqi**»
«**bu oddiy minnatdorlik**»

kabi fikrlar orqali o'z harakatini ruhiy jihatdan qabul qilinadigan holatga keltirishga harakat qiladi. Lekin eng muhim nuqta shundaki,

xulqiga ham to'liq mos keladi: bir marta kichik chekinish → ikkinchi marta yengillashuv → keyingi bosqichda odat → oxirida esa xulq o'zgarishi.

Shu sababli axloqiy nazoratda «kichik narsa» degan tushuncha yo'q.

Tibbiyotda immunitet organizmni viruslardan himoya qilsa, psixologiyada esa **psixologik immunitet** insonni salbiy ta'sirlar, bosim va vasvasalardan saqlaydi.

U quyidagi elementlardan shakllanadi: qadriyatlar tizimi, vijdon va ichki nazorat, mas'uliyat hissi, o'zini boshqarish qobiliyati, kasbiy g'urur.

Kuchli psixologik immunitetga ega inson qaror qabul qilishdan oldin o'zidan uch savol so'raydi:

1. Bu qaror qonuniymi?
2. Bu qaror vijdonimga mos keladimi?
3. Bu qaror mening sharafimni saqlaydimi?

Aynan shu savollar insonni tashqi ta'sirdan emas, ichki barqarorlikdan kelib chiqib harakat qilishga undaydi.

INSONNI KIM KUZATIB TURADI?

Qadimgi bir donishmanddan so'rashibdi:

– Insonni kim kuzatib turadi?

U javob beribdi:
– Agar insonni odamlar kuzatsa, u ehtiyot bo'ladi. Agar qonun kuzatsa, u intizomli bo'ladi. **Ammo agar insonni vijdoni kuzatsa, u halol bo'ladi.**

Bu javob ortida juda chuqur psixologik haqiqat bor.

Chunki tashqi nazorat insonning harakatini boshqaradi. Vijdon esa insonning niyatini boshqaradi.

Korrupsiyaga qarshi eng kuchli qal'a kameralar emas, jazo emas va nazorat tizimi emas. Eng kuchli qal'a – insonning ichki dunyosi, uning psixologik immuniteti va vijdonli qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Haqiqiy halollik esa har doim bir holatda namoyon bo'ladi:

hech kim ko'rmayotgan paytda qilingan tanlovda.

Naufal TURG'UNOV,
katta psixolog-poligrafolog,
kapitan.

Kasaba uyushmalari faoliyatidan

OCHIQ VA JONLI MULOQOT

Kasaba uyushmalarida ish yuritish va hujjatlarni rasmiylashtirish tartib-qoidalariga bag'ishlangan seminar-trening bo'lib o'tdi. Unda IIV tarkibiy bo'linmalaridagi kasaba uyushmalari raislari ishtirok etdi. Seminar-treningda O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining Toshkent shahar Kengashi murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi Ravshanxon Maxamadaliyev, Tashkiliy ishlar bo'limi mudiri Vera Shullyatina tizimda ish yuritishning zamonaviy talablari, xususan, bayonnomalar va qarorlarni to'g'ri rasmiylashtirish, boshlang'ich

tashkilotlarning ish rejalarini tuzish hamda ijrosini ta'minlash bo'yicha zarur uslubiy tavsiyalar berishdi.

Shuningdek, mehnat jamoalarida xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish, sohaga oid yangi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini ishchi-xizmatchilarga tushuntirish masalalari ham atroflicha muhokama qilindi.

Tadbirda IIV Tarkibiy bo'linmalari xodimlari birlashgan kasaba uyushmasi raisi Hamza Maxsumov so'zga chiqib, xodimlar va ishchi-xizmatchilarning qonuniy huquq hamda manfaatlarini samarali ta'minlash,



ijtimoiy-huquqiy himoyasini yanada kuchaytirishda ish hujjatlarini to'g'ri yuritish muhim ekanligini ta'kidladi.

Ochiq va jonli muloqot tarzida o'tgan seminar-trening davomida


ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldilar.

Ilhom JUMANOV,
IIV Birlashgan tahririyati kasaba uyushmasi kengashi raisi.

O'qishni tavsiya etaman

RUHIYAT CHASHMASI

Mavlono Jaloliddin Rumi nomi Sharq ma'naviyati tarixida faqat shoir yoki mutasavvuf sifatida emas, balki inson qalbining eng nozik sirlarini anglagan buyuk donishmand sifatida ham tilga olinadi. Uning hikmatlari asrlar davomida turli xalqlar qalbiga yo'l topib kelayotgani bejiz emas. Chunki Rumi so'zining markazida inson, qalb, muhabbat, poklik, ma'rifat va haqiqatga intilish turadi. «Hikmatlar» kitobi ham ana shu ma'naviy xazina-ni sara durdonalaridan biri bo'lib, unda insonni o'zini tanishga, nafsini tarbiyalashga, qalbini poklashga chorlovchi fikrlar jamlangan.



Rumi hikmatlarining asosiy qimmatlari – ularning qisqa, ammo teran ma'noga ega ekanidadir. Bir qarashda oddiy pand-nasihatdek tuyulgan jumlar o'quvchini chuqur o'yga toldiradi. Masalan, Rumi insonning tashqi ko'rinishi emas, ichki olami muhimligini ta'kidlaydi: «Odamlar suratini bezatsa, sen siyratingni beza» deydi. Bu hikmatda butun bir axloqiy dastur mujassam: inson faqat kiyimi, mavqeyi, obro'si bilan emas, qalbi, niyati, fe'l-atvori bilan qadrlidir.

Ushbu kitobda ilm va ma'rifatga munosabat ham yuksak baholanadi. Rumi insonni ilm dengiziga sho'ng'ishga, bilishdan to'xtamaslikka undaydi. U ilmni dengizga, tolibi ilmni esa g'avvosga qiyoslagan:

*Ilm-u fan – dengiz, ko'rinmas unga had,
Tolibi ilm unga g'avvosdir abad.*

Kitobning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, u har qanday yoshdagi o'quvchi uchun ibrat manbayi bo'la oladi. Yoshlar undan odob, ilm, kamtarlik, sabr va mehr sabog'ini olsa, katta yoshdagilar esa unga hayot tajribasi bilan qayta-qayta o'qiladigan ma'nolarni topa oladi.

Go'zal JAFAROVA,
o'z muxbirimiz.

RUMIY SABOQLARI

- Dard insonga yo'l ko'rsatur.
- Aqlidan kelgan jafo nodondan kelgan vafodan yaxshidir.
- Shaxmatda piyoda yo'lga chiqib, oxirida vazir bo'ladi.
- Sabr – insonni maqsadiga eng tez olib boradigan yo'l ko'rsatuvchidir.
- Egri oyoqning soyasi ham egri bo'ladi.
- Yaxshi do'sti borning oynaga ehtiyoji yo'qdir.
- Inson kulishi ila tarbiyasini, kulgan narsasi ila saviyasini ko'rsatadi.
- Umid — xavfsiz yo'lining boshidir.
- Har qo'lingni siqqan bilan do'st, joningni siqqan bilan dushman bo'lma!
- Haqiqiy do'stlar qo'l bilan ko'z kabidirlar. Qo'l og'riganda ko'z yig'laydi, ko'z yig'laganida, qo'l uni artadi.

SO'RANG, JAVOB BERAMIZ

Savol: YPX xodimlari tomonidan ma'muriy ogohlantirish qanday holatlarda beriladi?

Javob: huquqbuzar o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lganda, Kodeksda belgilangan boshqa huquqbuzarlik alomatlari bo'lmagan taqdirda ba'zi qoidabuzarliklar uchun ma'muriy ogohlantirish berilishi mumkin.

Bular:



TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARI

Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan transportni boshqarish

MJtK 125-modda (1, 2-qismlar)



BOSHQARUV VAQTIDA TELEFONDAN FOYDALANISH

Telefonda gaplashish yoki xabar yozish

MJtK 128¹-modda



MONITORDAN YOKI DISPLAYDAN FOYDALANISH

Tele-videodasturlarni tomosha qilish

MJtK 128²-modda



TO'XTASH YOKI TO'XTAB TURISH QOIDALARI

Taqiqlangan joylarda to'xtash

MJtK 128⁶-modda



MAJBURIY SUG'URTA TALABLARINI BUZISH

Sug'urta polisiz boshqarish

MJtK 135¹-modda



PIYODALAR VA BOSHQA ISHTIROKCHILARNING QOIDALARI

Piyodalar va boshqalarning yo'lni noto'g'ri kesib o'tishi

MJtK 138-modda (1, 2-qismlar)



ESLATIB O'TAMIZ:

Ma'muriy ogohlantirish ayni bir shaxsga nisbatan 1 yil davomida faqat 1 marotaba qo'llanilishi mumkin.

BIRINCHI O'ZBEK ARXEOLOGI

Dunyodagi har bir kasbning o'z kashsho-fi bor. Ular qo'ygan tamal toshlar talab ahlini tamaddunga yetaklagan. Taqdiriga ko'p jihatdan birinchi bo'lish bitilgan Muso Saidjonov ham ana shunday kashshoflardan biri edi.

BOYNING BOLASI


Bizning ong-u shuurimizda boyning bolasi tanbal bo'ladi, doim og'irning ustidan, yengilning ostidan yuradi, nimaiki xohlasa, muhayyo qiladi, shuning uchun ham turmushning achchiq-chuchugini totmay, yengilyelpi hayot kechiradi, degan qolip qotib qolgan.

Aslida-chi? Aslida har doim ham shunday emasligini birinchilardan bo'lib isbotlagan Muso Saidjonovdir. Haqiqatan ham, u boyning bolasi edi. Musoning bobosi qorako'l savdogari Saidboy o'z zamonasining mohir tujorlaridan bo'lib, Rossiya, Xitoy kabi davlatlar bilan keng savdo ishlarini yo'lga qo'ygandi. Saidboyning to'rt o'g'li bo'lib, Yo'ldoshboy, Narzulloy, Avazboy, qorako'l savdosi bilan, kenja Muhammad Yunusboy esa ipak tijorati bilan shug'ullangan.

1893-yil bahorida dunyoga kelgan Muso to'ng'ich o'g'li Yo'ldoshboyning farzandidir. Yetti yoshida otadan yetim qolgan Muso avval eski maktab va Mir Arab madrasasida tahsil oladi, so'ngra 1894-yil Kogonda ochilgan rus-tuzem maktabida o'qishni davom ettiradi. Maktab dasturi orqali rus adabiyoti, matbuoti, jumladan, «Tarjimon» gazetasi bilan tanishgan, aniq va tabiiy fanlarni o'zlashtirgan Muso 1908-yil bahorida guvohnomani qo'lga kiritadi. So'ng ikki yil davomida amakisi Muhammad Yunusboy qo'lida Karki va Marg'ilon orasida qorako'l hamda ipak savdosini yo'lga qo'yadi. Ayni paytda xalqning og'ir turmush sharoiti, dunyo yangiliklaridan xabardor bo'ladi.

MA'RIFAT MASH'ALASI

Muso Saidjonov qaysi vazifada ishlamasin, jadid taraqqiyparvari bo'lib qoldi. U qoloq Buxoro zaminida qadimdan ravnaq topgan ma'rifat mash'alasini qayta alangalatish yo'lida tinimsiz kurash olib bordi. Dastlab «Shirkati maorif» va uning qoshida «Kutubxonai maorif» ochib mudirlik qiladi. Ko'plab gazeta va jurnallarni keltirib, kitoblar chop etadi. Samarqandda yangi ochilgan dorulmuallimiga mudirlik qiladi. Uning rahbarligida ochilgan uchta ayollar maktabida 128 nafar xotin-qiz, savodsizlikni tugatish bo'yicha 40 ta kursda esa 3000 nafar tolib ta'lim olgan. U jadid maktablarida millat kelajagi bo'lgan yoshlarga ilm-u ma'rifat



ulashish barobarida, Buxoro tarixi aks etgan asarlarni diqqat bilan o'rganadi va o'z yurti tarixining birinchi tadqiqotchisiga aylanadi.

BIRINCHILAR QATORIDA

Birinchi bo'lish Muso Saidjonov qismatiga bitilgan yoziq edi. Ayniqsa, 1920-yil sentabrda «Yosh buxoroliklar» o'zlarining yangi hukumatini shakllantira boshlagan davrda, u bir qator vazifalarda birinchilardan bo'ldi. Xususan, Buxoro Xalq Jumhuriyati oziq ishlar noziri, iqtisodiyot nozirining o'rinbosari, Favqulodda komissiya raisi, davlat nazorati noziri, moliya noziri, Xalq xo'jalik oliy kengashi raisi muovini lavozimlarida ish olib bordi.

BXSR maorif noziri etib tayinlangach, u ishini o'qituvchilar tayyorlaydigan dorulmuallimlar ochishdan boshladi. Uning talabi bilan 1923-yil maorif ishlariga amaldagi 8 foiz emas, davlat byudjetining 25 foizi

o'qishga yuborish tashabbuskorlaridan biri bo'ldi.

TARIX TILSIMLARIN OCHGAN OLIM

1925-yilga kelib hukumat ishlaridan butunlay chekingan Muso Saidjonov hayotini tarixchi sifatida faqat ilmiy tadqiqotlarga bag'ishlaydi. Dastlab, Buxorodagi obidalarining eng qadimini Amir Temur davri bilan bog'lagan, Somoniylar maqbarasining X asrga oidligini rivoyatdan boshqa narsa emas, deb hisoblagan Yevropa qadimshunoslariga vaqf hujjatlari asosida maqbaraning IX asrga oidligini, Vobkent minorasi Burhoniddin Abdulaziz tomonidan 1141-yilda qurilganini isbotlab berdi. Shuningdek, «Buxoro



Muso Saidjonov (chapda) Abdurauf Fitrat va Sa'diy Muhammadiy bilan.

sabablari, u haqdagi Klavixoning esdaliklarini keltiradi. Zarhal koshinlar, binodagi yozuvlar, qabrtosh bitiklari bilan tanishtiradi. Asarning 1929-yil 9-aprel kuni yakunlangani muallifning Amir Temur tavalludiga o'ziga xos sovg'asi bo'lgandi.

«ESKI MASJID GUMBAZLARI OSTIDA»

Bu Muso Saidjonovning osori atiqalarimiz haqidagi navbatdagi tarixiy asarining nomi emas. Aksincha, ayni shu nomda 1934-yil avgustida «Pravda Vostoka» gazetasida chop etilgan bo'htondan iborat maqola ortidan uning faoliyatiga nisbatan tazyiqlar boshlanadi. Lekin Muso Saidjonov bunday bo'hton-u tazyiqlarga qaramay, ilmiy va amaliy faoliyatini qizg'in davom ettirdi. 1935-yil 15-sentabrda o'zbek olimlaridan birinchi bo'lib sharqshunoslarning Leningradda bo'lib o'tgan uchinchi kongressida «Samarqand obidalar tarixidan yangi ma'lumotlar» nomli ma'ruzasi bilan qatnashib katta shuhrat qozonadi va ilmiy faoliyati uchun olimga birinchilar qatori professor unvoni beriladi.


Biroq Muso Saidjonov boshi uzra aylanayotgan qora bulutlar tobora quyulashib borardi. 1937-yil 30-martda Samarqand shahri Mahdumi Xorazm mavzesidagi 48A-uyda kechgan tun uning hayotidagi erkinlikning so'nggi kuni bo'ldi. Oradan 13 kun o'tib chiqarilgan qarorda Muso Saidjonovga o'zbek davlatchiligi tarixi masalalarini noxolis tadqiq qilgan, milliy madaniy merosga hurmat bilan yondashgan, «Milliy ittihad» tashkiloti faoliyatida qatnashgan kabi ayblovlar tirkaladi. Uzundan uzoq davom etgan tuturiqsiz so'roqlarda Muso Saidjonovga qo'yilgan birorta ayblov o'z isbotini topmadi. Butun hayotini Vatan ravnaqi, ilm-ma'rifat taraqqiyoti uchun bag'ishlagan fidoyi olim sho'ro mal'unlari qo'lida jismoniy qiynoqlar, ma'naviy tahqirlar bilan to'la bo'hton asosida 1937-yil 14-oktabrda mash'um «uchlik» tomonidan otuvga hukm etildi.

1939-yil 1-sentabr kuni Rizvon Saidjonova turmush o'rtog'ining qismati haqida O'zbekistonning mas'ul idoralari ariza bilan murojaat qiladi. Biroq hech qanday javob qaytarilmaydi. Uning 1956-yil 12-sentabrda ari-zasiga esa Muso Saidjonovning 10 yil muddatga qamoqqa hukm etilgani va 1944-yil 25-oktabr kuni jazoni ijro etish davrida vafot etganligi haqidagi yolg'on-yashiqdan iborat javob qaytarilgan, faqat 1965-yil 2-dekabrda kelib oqlangan.

XULOSA O'RNIDA

O'z davrida nafaqat sho'ro, balki Yevropa olimlari ham ilmiy salohiyatiga yuqori baho bergan birinchi o'zbek tarixchi-arxeologi ayni kamolot pallasida qurbon qilingani milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizga berilgan jiddiy zarba edi. Biroq butun umrini ma'rifat mash'alini boshi uzra baland ko'targan olimning akademik Yahyo G'ulomov kabi ko'plab shogirdlari uning mardonavor ishini davom ettirib, O'zbekiston tarixi fanida o'chmas iz qoldirishdi.

Temir QURBON



1937-1938-yillarda O'zbekistonda qatag'on qilingan 40 mingdan ortiq kishidan bor-yo'g'i qariyb 15 ming nafarining ism-sharifi aniqlangan, xolos. Qolganlarining esa taqdiri hamon mavhum.

miqdorida mablag' ajratildi. Yangi davlatda maorif muassasalarini tashkil etish, ilmiy jamiyatlar tuzishda faol qatnashdi, me'moriy obidalarini muhofazalash, tarixiy qo'lyozmalarni to'plab, ularni tartibga solish, xalq og'zaki ijodi namunalarni to'plash kabi ishlarda jonbozlik ko'rsatdi. Muso Saidjonov buxorolik talabalarni Germaniyaga

darvoza va masjidlarining vaqfi», «Sayfiddin Boharziy maqbarasi va uning vaqf mulklari» kabi o'nlab ilmiy asarlarni yaratdi.

Muso Saidjonov 1928-yil O'zbekiston Osori atiqalarini o'rganish tashkilotiga rais etib tayinlangach, «Bibixonim», «Go'ri Amir», «Shohizinda» kabi ko'plab yodgorliklarni o'rganish natijasida «Samarqand me'moriy yodnomalari» asarini yozib tugatadi. Ayniqsa, uning fidokorona

faoliyati bois allaqachon yo'qolib, vayronaga aylanib ketgan Kuchkun-chixon maqbarasi va madrasasi ham aniqlanadi. Uning 1929-yilda chop etilgan «Go'ri Amir (Amir Temur maqbarasi)» kitobida esa Sohibqironning muzaffar yurishlari, tarixiy inshootlar mahobati, ustalar mahorati haqida so'z boradi. Go'ri Amirning qurilish



Munosabat

Gazetaning o'tgan sonida chop etilgan jurnalist Muqaddas Saparovaning «Sir» nomli maqolasini o'qib, avvaliga hayratlandim, so'ng chuqur o'yga toldim. O'ylaganim sari bu sir zamirida yotgan boshqa sirlar ham ochilaverdi.

Shu bois mazkur mavzu bo'yicha o'z fikr-mulohazalarimni bayon etishga jazm etdim. Maqolada bir ayolning turmush o'rtog'iga munosabati ijodiy guruhni hayratga solgani bayon etilgan. «Onaxon choy quyib, otaxonga uzatdi, ammo... uning ko'zlariga tik qaray olmadi. Fotomuxbirimiz onaxonga ko'rsatma bera boshladi. Jarayon takrorlandi: qo'l havoda uzatilgan-cha qoldi, nigoh esa hamon yerda. Bu holatni kuzatib, hammamiz kulib yubordik...»

Shu yerga kelganda «Nega kuldingerlar, axir bu ota-onalarimiz turmush tarzining oddiy qoidasi-ku, degim keldi? Ammo muxbir haq edi. Negaki, biz kabi yarim asrdan ortiq umr ko'rgan kishilar bunday tabiiy holni bolaligimizda ko'p kuzatgan bo'lsak-da, yoshlardan gina qilishga haqqimiz yo'q. Qolaversa, oilaviy qadriyatlar, ming yillar davomida shakllangan turmush tarzi, tartib-qoidalar unutilgan, ayrim udumlar iste'moldan chiqib ketgandan keyin bunday holning kulgili hisoblanishi tabiiy.

Kutilmagan kulgidan xijolat tortgan otaxon tanmahramiga

NIGOHI YERGA QADALGAN AYOL

Faqat milliy, xalqona ta'lim-tarbiya bilan ma'naviyat, ichki madaniyat payvand qilinsagina odamlarni har qanday pastkashlikdan, tubanlikdan asrab qolish mumkin.

Chingiz AYTMATOV

qarab: «Bo'laqol, nega uyalasan? O'n sakkiz yashar qizmiding? Tezroq bo'l, mehmonlarni kuttirib qo'ydik...» deydi. Ammo shunda ham onaxon otaxonga tik qarashga jur'at qilmadi.

Nega otaxon ruxsat bersa-da, ayol eriga tik boqmadi?

Sharqda qadimdan oilada «Ayol malika, er podshoh» degan qoidaga qat'iy amal qilingan. Oila munosabatlari ham shunga mos va xos shakllanib, xonadon sohibasi o'zini malikaday tutgan, erkak esa o'zini podshoday ko'rib, oila muammlarini hal qilgan va uni umr bo'yi himoya qilgan. Afsuski, bu gaplar hozir qo'shiqlarda qoldi, xolos. Shuning uchun ham mazkur holat

ijodiy guruhga ajabtovur tuyulgan va ular bunga kulishgan.

Buni chuqur anglagan va kulganidan xijolat chekkan muallif «Menimcha, sayyohlarni bu yerga

doqat va chin muhabbatdir. Chun-ki 55 yil birga yashab, hali hamon turmush o'rtog'ining ko'ziga tik qarashdan uyalish – shunchaki oddiy hol emas» deya fikrini xulosalaydi.

Ha, hamma gap shunda. Maqolaning kuchi, qudrati va jozibasi ham mana shu oddiy holning, er-xotin munosabatining bugunga kelib sirga aylanib qolganini o'zida aks ettirganida. Va butun dunyo olam sirlarni ochayotganida, biz oilalarni ming yillar davomida gulday asrab, momiqday gard yuqtirmay kelgan oddiy turmush tarzimiz tartib-qoidalari va munosabatlarini saqlab qolish o'rniga, ularni sirli jumboqqa aylantirib qo'yib, boz ustiga, ular ustidan kulishgacha borib yetganimizda. Mana shu fojiamiz aks etgani uchun ham ushbu maqolani juda dolzarb, desak, bo'ladi.

Yana bir gap: «Sir» hamon sirlicha qolayotgan boshqa sirlarni ham yodimga soldi. **Yaqin o'tmishda ham er-xotinlar bir-birini ismi bilan chaqirmas, hatto o'zi bo'lmasa ham, ismini aytishmas edi. Xo'sh, bu sirli munosabatning sirini kim biladi?**

Shuhrat RO'ZIYEV, jurnalist.



Forishning so'lim tog'li qishlog'i – Uxunga ijodiy safar davomida ajoyib bir voqeaga duch keldik.

ladi. Jarayon takrorlandi: qo'l havoda uzatilgan-cha qoldi, nigoh esa hamon yerda. Bu holatni kuzatib, hammamiz kulib yubordik. Otaxon bir oz noga'y vaziyatga tushib, kampirini asta kuyigan bo'ldi: «Bo'laqol, nega uyalasan? O'n sakkiz yashar qizmiding? Tezroq bo'l, mehmonlarni kuttirib qo'ydik...»

Biroq baribir onaxonni ellik besh yillik umr yo'ldoshining ko'zlariga qarata olmadi. Oxiro oramizdan bir kishi otaxonning yon tomoniga o'tib, onaxonning nigohi qaratilishi kerak bo'lgan balandlikda turib berdi. Shu tariqa, intizorlik bilan kutilgan surat nihoyat tayyor bo'ldi.

O'rtga qaytayotganimizda hammamiz nuro'ni onaxonning ushbu go'zal holati haqida o'ylab ketdik. Uzun turmush qishlog'iga aylanganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Maftunkor tabiati, mag'zur tog'lar va shargirab oqadigan Uxumoy sabab bu yerdan sayyohlar qadimi uzilmaydi. Ular shaharning shovqini-yu tutundan qochib, tunlari

chigirtka chirillaydigan, tonglari kakik xonsh bilan boshlanadigan sokinlikni izlab keladilar. Lekin, menimcha, sayyohlarni bu yerga tasatga tabiiy go'zalligi emas, balki qimmatli yo'q bir boylik chorlaydi. Bu – bugungi kunda ko'p joylarda asta-sekin kamyob bo'lib boryotgan samimiyat, hayo, sadoqat va chin muhabbatdir. Chunki ellik besh yil birga yashab, hali hamon turmush o'rtog'ining ko'ziga tik qarashdan uyalish – shunchaki oddiy hol emas. Biz fotokamera obyektiviga baxtni muhramoqchi edik. Ammo o'sha kuni baxtning o'zidan ham nozilroq va haromroq ko'rinishga asosiy sir nima ekanini angladim.

– yarim asrdan oshgan muhabbatning hayo bilan birga yashab kelayotgan betakror jozibasiga guvoh bo'ldik.

O'sha kuni men sayyohlarni bu yerga ohanraboddek tortadigan asosiy sir nima ekanini angladim.

Muqaddas SAPAROVA, o'z muxbirimiz.

Jizzar viloyati.

Faxriylar – faxrimiz



– Otamizning bog'dorchilikdan yaxshigina xabarlar bor edi. U kishini «Rayim bog'bon» deyishardi. Shu yerda olmozor bog' yaratganlar, – deydi Ulug'bek aka biz bilan suhbatda. – Pensiyaga chiqqanimdan so'ng, bog'ni yangilash fikri tug'ildi. Zamon talabiga mos, ehtiyoj yuqori bo'lgan turdagi mevali ko'chatlar o'tqazdik. Buning uchun davlatdan 33 million so'm imtiyozli kredit olganman.

KULIBOLOLIK BOG'BON

Jondor tumanining Kulibolo qishlog'i asosan mirishkor dehqonlar-u usta hunarmandlar maskani. **Ulug'bek Fattoyev 1990–2015-yillarda ichki ishlar organlarida xizmat qildi. Podpolkovnik unvonida obro'-e'tibor bilan pensiyaga chiqqach, ota kasbi deb bog'bonlik bilan shug'ullana boshladi. Yaqinda tuman IIB Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi podpolkovnik Qodir Hayitov bizni ana shu bog' tomon boshladi.**

Lavhamiz qahramoni suyagi mehnatda qotgan inson. U bir ishga jazm etdimi, albatta, amalga oshirmasa, ko'ngli joyiga tushmaydi. Otasidan qolgan bog'ning hosili kamaygani bois, mevali daraxtlarni yangilashga kirishdi. O'tgan o'n yil davomida tinim bilmadi. Qishin-yozin bog'dan chiqmadi, hisob. «Harakatda barakat» deganlariday, mehnatining mevasidan bugun bahramand bo'lmoqda.

– To'g'risini aytsam, bu bog'ni yaratishning o'zi bo'lmadi. Shogirdim maqtanishni yoqtirmaydi. Ammo mehnatni qoyil-latadi. Shu yil bahor o'rtalaridagi sovuqdan xabaringiz bor uch kecha-kunduz tinim bilmadi, daraxtlar tagida xas-xashakdan tutanqi qilib, hosilni saqlab qolishga erishdi, – deya iste'fodagi kapitan Shodmon Shodiyev suhbatimizga qo'shildi.

Haqiqatan ham o'sha sovuqning baravj gullayotgan daraxtlarga ta'siri kuchli bo'ldi, ko'p hosilni urib ketdi. Lekin bu bog'dagi daraxtlarning hosili mo'l. Bog'bonning aytishicha, har birida kamida o'n-o'n besh kilodan mevasi bor.

– Mehnat qilgan kam bo'lmaydi, – deydi Ulug'bek aka dilimdagini bilganday muloyim jilmayib. – Sabzavotlar ham, sut-qatiq ham, go'sht ham o'zimizdan chiqadi. Yana nabiralar uchun olma, bodom, shaftoli singari o'nga yaqin mevali daraxtlar parvarish qilganmiz.

Mirishkor bog'bonning maqtanganicha bor. Mazkur bog'da 140 tup o'rik, 60 tup gilos bo'lib, u daromadni asosan shulardan oladi. O'rikni quritib, turshak qilib sotadi. Gilosdan ham mo'maygina foyda ko'radi. Ulug'bek akaning aytishicha, daromad hisobidan farzandlarini o'qitayapti, avtomashina xarid qildi.

Ulug'bek aka toleyi kulgan insonlardan. Chunki u ham xizmat faoliyatida, ham dehqonchilik borasida ko'pgina yutuqlarga erishdi. Qolaversa, ibratli oila boshlig'i, mehribon ota va jondan aziz nabiralarining bobojonisi. U umr yo'ldoshi Nasiba opa bilan birgalikda uch qiz va ikki o'g'ilni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Ularning ikkitasi davlat granti asosida oliygohlarni tugatdi, ayni paytda qolganlari ham oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishmoqda.

Mirzoqul AHADOV, o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



PEDAGOGLAR BELLASHISHDI

Namangan shahrida pedagog ayol-qizlar o'rtasida voleybol bo'yicha «Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri kubogi» musobaqasining respublika final bosqichi o'tkazildi.

Murosasiz bahslar yakuniga ko'ra Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumani 16-maktab jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Navoiy viloyatining Navoiy shahri 11-maktab jamoasi va Jizzax viloyatining Arnasoy tumani 22-maktab jamoasi mos ravishda ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egallashdi.

Taqdirlash marosimida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari Sherzod Karimov, vazir o'rinbosarlari Farhod Boqiyev va Azizbek Turdiyev, Ichki ishlar vazirining birinchi o'rinbosari, general-mayor Rustam Djo'rayev, Sport vaziri o'rinbosari Shahrullo Mahmudov, Namangan viloyati hokimi o'rinbosari Otabek Bozorov, ishtirokchi pedagoglar hamda mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Respublika final bosqichida ishtirok etgan jamoalar hamda turli nominatsiyalar bo'yicha g'olib deb topilgan pedagoglar tashkilotchilar tomonidan diplom, medal, kubok va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Ma'lumot uchun, musobaqaning barcha bosqichlarida respublikamizdagi 14 mingdan ortiq ta'lim muassasasidan 110 ming nafardan ziyod ayol pedagog ishtirok etdi.

SPORT BAYRAMI

7-iyul – Xalqaro voleybol kuni munosabati bilan O'zbekiston Voleybol Federatsiyasi tomonidan Olimpiya shaharchasida sportning ana shu go'zal turiga bag'ishlangan yirik bayram dasturi tashkil etildi.



Tadbir davomida sportchilar va mehmonlar uchun qiziqarli show dasturlar, interaktiv o'yinlar hamda viktorinalar uyushtirildi. Faol ishtirok etgan voleybol xilsozlariga federatsiyaning esdalik sovg'alari topshirildi va barchaga unutilmas bayram kayfiyati ulashildi.



DUBAY SARI YO'L

Buxoroda aralash jang san'ati bo'yicha O'zbekiston chempionati o'tkazildi.

Yaqinda Buxoro shahridagi sport majmuasida O'zbekiston Aralash jang san'atlari assotsiatsiyasining IMMAF yo'nalishi bo'yicha o'smirlar va yoshlar (10–11, 12–13, 14–15 hamda 16–17 yosh toifalari) o'rtasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi.

Musobaqada mamlakatimizning barcha hududlaridan jami 695 nafar o'g'il va qiz sportchi ishtirok etib, chempionlik uchun bahs olib bordi.

Chempionat yakunlariga ko'ra, sovrindor sportchilar orasidan milliy terma jamoa murabbiylari tomonidan O'zbekiston terma jamoasi tarkibi shakllantiriladi va ushbu terma jamoa 2026-yil 16–23-avgust kunlari Dubay shahrida bo'lib o'tadigan Jahon chempionatida ishtirok etadi.

Aytish joizki, mazkur chempionat yosh sportchilarning mahoratini oshirish, xalqaro maydon uchun iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda mamlakatimizda aralash jang san'atlarini yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

«BESH YOSHLI» FUTBOLCHIMIZ ANGLIYANI ZABT ETMOQDA

«Sport Ekspress» sharhlovchisi Igor Rabiner futbol bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi va «Manchester City» futbolchisi Abduqodir Husanovning agenti Gayrat Xasbiullin bilan suhbatlashdi. U «Manchester City» himoyachisi, shuningdek, Eldor Shomurodov, Abbas Fayzullayev, Behruz Karimovlar faoliyatidagi qiziqarli voqealar haqida hikoya qilib berdi.

«...Biz Abduqodir Husanov bilan «Toshkent – Istanbul» reysida ekonom-klassda ucha-yotgan edik. O'sha reysda uning bo'lajak turmush o'rtog'i oilasi bilan Turkiyaga dam olishga ketayotgan ekan. Ular salon bo'ylab yonimizdan o'tib ketishdi, onasi biz bilan salomlashdi. Bu Abduqodirning xotirasida muhrlanib qoldi. Taqdiri qarangi, bir necha yildan so'ng ular turmush qurishdi. Taqdiri azal deganlari shu bo'lsa kerak.

E'tiborlisi, Husanov nufuzli futbol jamoasi tarkibida o'ynay boshlaganidan beri qarshi hujumlarda gol o'tkazib yubormayapti. «City»da u boshqa darajaga chiqdi. Jamoadoshlari qo'llab-quvvatlashdi va g'amxo'rlik qilishdi. Bu borada uning omadi chopdi. Abduqodir esa doimiy ravishda o'smoqda. Va bundan keyin ham o'sadi. Oxirgi mavsumda «Manchester City»ning eng yaxshi 3 o'yinchisi qatoriga kirgani, dunyoning eng yaxshi futbol ligasida ikkita sovrinni qo'lga kiritgani va ikkinchi o'rinni egallagan jamoa tarkibida ekanligining o'zi buning yorqin isboti.


Murabbiy Pep Gvardiola Abduqodir bilan juda iliq munosabatda bo'ldi, judayam. Abduqodir zaxira o'rindig'ida o'tirganida, o'ynamaganida, Pep doim jamoaga u haqida gapirardi. Doim uni o'rnak qilib ko'rsatardi. U o'ynay boshlaganida, Gvardiola futbolchilar-



ga dedi: «Mana ko'rdingizmi, u mehnat qildi, taslim bo'lmadi, o'rgandi va o'z imkoniyatiga ega bo'ldi». Uning misolida futbolchilarga nomlar emas, balki fidoyilar o'ynashini ko'rsatib berdi.

Yana bir qiziqarli jihat bor – u 29-fevralda tug'ilgan. Ya'ni Abduqodirni hozir besh yoshda deyish mumkin, chunki u dunyoga kelgan kundan beri bu sana atigi besh marta takrorlangan!

...Bizning terma jamoamizda avlodlar almashinuvi yuz berishi kerak. O'ttiz yoshlar atrofida gildardan, menimcha, faqat o'z darajasi bilan ajralib turgan, JCH guruh bosqichining eng yaxshi goli muallifi sifatida



e'tirof etilgan Eldor Shomurodov qolishi kerak – ammo qolgan jihatlarda, oldinga katta qadam tashlash uchun bizning futbol mutasaddilarimiz jasorat topib, tarkibni sezilarli darajada yoshartirishga qaror qilishlari kerak.

...O'zbekistonning Jahon chempionatlaridagi ilk goli muallifi sifatida Abbas Fayzullayev ham mamlakat futbol tarixida abadiy qoldi.



U albatta Turkiya chempionatidan ko'ra kuchliroq liga ketadi, deb umid qilamiz. Abbas bunga munosib, u juda katta iqtidor egasi.

...Jahon chempionatining dastlabki ikki o'yinida 90 daqiqadan harakat qilgan 18 yoshli Behruz Karimov bo'yicha Rossiyaning kuch-



li oltilik jamoalari biz bilan bog'lanishdi. Behruz ularning qiziqishini hurmat bilan qabul qilishini, ammo Yevropa klublari futbolida o'ynashni xohlashini aytdi. Hozirda muzokaralar faol olib borilyapti.

U ham Husanov yo'lidan, ya'ni Fransiya 1-Ligasi orqali ketishi mumkin, lekin Germaniya varianti ham yo'q emas.

Men Fabio Kannavarodan, Behruz Karimovni Husanovdan keyin katta futbol Yevropasida ko'ryaptimi, deb so'radim. «Oltin to'p» sohibi «iqtidor bor, lekin ishlash, ishlash va yana ishlash kerak», deb javob berdi.

Kannavaroning uni 18 yoshida jarohatlariga qaramay JCH-2026 da asosiy tarkibga qo'ygani men uchun katta ko'rsatkich. Oldinroq aytganimdek, chempionatdan biroz oldin Behruzda beshinchi kaft suyagining sinishi kuza-tilgandi va ko'p sonli odamlar hamda tuzilmalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan buni davolashga muvaffaq bo'lindi. Biroq Kolumbiya bilan o'yindan oldingi mashg'ulotda u sonining old mushagini ham yirtib oldi. Bu haqda hech kimga aytmadi. Diqqat bilan qarasangiz, kolumbiyaliklarga qarshi teyp (maxsus bog'ich) bilan o'ynadi va yugurayotganda keskin harakatlar qilmadi. Og'riq bilan bo'lsa-da, munosib o'ynadi, hatto to'p bilan to'sinni mo'ljalga oldi.

...Endi bundan buyon O'zbekiston Jahon chempionatlarining doimiy ishtirokchisi bo'lib qolishiga zarracha shubha qilmayman. O'sib kelayotgan juda kuchli yosh avlod borligini bilaman va ularga yo'l ochish, ularni barbod qilmaslik kerak. Avlodlar almashinuvi qancha erta boshlasak, jamoa JCH-2030 saralash bosqichiga shunchalik tayyor holda yetib keladi va unga hozirgisidan mutlaqo boshqacha tarkib bilan boradi. Navbatdagi Jahon chempionati O'zbekiston uchun ertagayoq boshlanadi va buni anglash kerak. Hozir 18–20 yoshda bo'lganlar o'sha paytga kelib 22–24 yoshga to'ladi. Ayni kuchga to'lgan payti.

Mamlakatni dunyoda ommalashtirish nuqtayi nazaridan juda katta ish qilindi. Biz yillar davomida Osiyo musobaqalarida xuddi shu Eron terma jamoasi bilan tengma-teng o'ynab kelyapmiz, ular esa Jahon chempionatlarida doimiy ishtirok etish tajribasiga ega va guruhda birorta ham o'yinda yutqazmaslikka qodir. Demak, to'g'ri ish olib borilsa, biz ham bunga erishamiz.

Erkin SATTOROV tayyorladi.



Salomatlik

Inson hayotining eng muhim a'zosi yurak bir soniya ham tinmay, uzluksiz faoliyati orqali butun organizmga hayot bag'ishlaydi. Afsuski, insonlarning o'z sog'lig'iga bee'tiborligi yoki boshqa ba'zi omillar sababli aynan yurak-qon tomir kasalliklari bugun eng katta muammolardan biriga aylangan.

Ma'lumotlarga ko'ra, har yili dunyoda 20 milliondan ziyod inson ushbu kasalliklari tufayli hayotdan ko'z yummoqda. Bu barcha o'lim holatlarining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Yurtimizda ham o'lim sabablari orasida yurak-qon tomir kasalliklari birinchi o'rinni egallab kelmoqda.



Bugungi e'tibor – ertangi sog'lom hayot garovi

YOSHLAR ORASIDA HAM XAVF ORTMOQDA

Avvallari ko'pchilik infarkt yoki insult asosan 60–70 yoshli insonlar kasalligi deb hisoblagan bo'lsa, bugungi kunga kelib yurak-qon tomir kasalliklari, jumladan, o'tkir miokard infarkti yoki bosh miyada qon aylanishining o'tkir buzilishi (insult) qayd etilgan 30–40 yoshli bemorlar soni ortib borayotgani achchiq haqiqatdir. Ayrim hollarda nosog'lom turmush tarzi, energetiklar, tamaki mahsulotlari, spirtli ichimliklarni me'yorida ortiq iste'mol qilish, uyqusizlik, stressni nazorat qilmaslik oqibatida bu kasalliklar hatto 25–30 yoshdagilar orasida ham qayd etilmoqda.

Tassavvur qiling: ayni kuchga to'lgan, aqlan va jismonan baquv- vat yoshda nogiron bo'lib qolish, jamiyatga, oilasiga foyda keltirish o'rniga o'zgalar yordamiga muhtoj bo'lishdan ayanchliroq hayot bormi?! Bugungi kunda yurak-qon tomir kasalliklari «yosharib» borishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

- * kamharakatlik, kompyuter va telefon qarshisida uzoq vaqt o'tirish;
- * tez va oson tayyorlanadigan, yog'li ovqatlarni ko'p iste'mol qilish;
- * ortiqcha vazn va semizlik;
- * yuqori qon bosimi yoki qandli diabetning nazorat qilinmasligi;
- * chekish va elektron sigareta- lardan foydalanish;
- * doimiy stress;
- * kam uxlash sabab bo'lmoqda.



Infarkt yoki insult bir kunda sodir bo'lmaydi, balki yillar davomida yuqori qon bosimi, xolesterin darajasi ortishi, qonda qand miqdori- ning yuqoriligi, chekish, semizlik va harakatsizlik kabi omillar tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun profilaktika – eng samarali davolash usulidir.

Yurak sog'lom bo'lishi uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- qon bosimini muntazam nazorat qiling;
- qondagi qand va xolesterin miqdorini tekshirib turing;
- har kuni kamida 30 daqiqa faol harakat qiling;
- sabzavot, meva va butun don mahsulotlarini ko'proq iste'mol qiling;
- tuzni kunlik 5 grammdan ortiq qabul qilmang;

– tez o'zlashtiriladigan uglevodli mahsulotlar (turli shirinliklar, tort- lar, shirin ichimliklar) iste'molini cheklab, ularning o'rniga taom- nomaga sekin o'zlashtiriladigan uglevodlar (yormalar, dukkakli mahsulotlar, sabzavotlar)ni kiriting;

- chekish va spirtli ichimliklar- dan voz keching;
- ortiqcha vazndan xalos bo'ling;
- stressni kamaytirishga harakat qiling va yetarlicha uxlang;
- 40 yoshdan keyin, xavf omillari mavjud bo'lsa, undan ham ertaroq profilaktik tibbiy ko'rikdan munta- zam o'ting;
- har kuni me'yorida suv ichishga odatlaning.

TIBBIY OGOHLIK MUHIM

Unutmang, barchasi o'z qo'lin- gizda! Yurak-qon tomir kasallikla- rining qariyb 80 foiz holatlarida

sog'lom turmush tarziga rioya etish va xavf omillarini nazorat qi- lish orqali infarkt hamda insultning oldini olish mumkin!

Jismoniy yuklama va kuchli charchoqdan keyingi yurak so- hasidagi noxush his, havo yetish- masligi, yurak urishi tezlashishi yoki maromi buzilishi, bosh ayla- nishi yoki hushdan ketish, yuz, qo'l yoki oyoqning bir tomonida kuchsizlik, nutqning buzilishi kabi belgilarga befarq bo'lmay, zudlik bilan shifokorga murojaat qiling! Bunday hollarda har bir daqiqa muhim ahamiyatga ega.

Sizda yurak-qon tomir xasta- liklari (yurak ishemik kasalligi, gipertoniya), shuningdek, qandli diabet mavjud bo'lsa, shifokor buyurgan dori vositalarini o'z vaq- tida qabul qiling. Arterial qon bosimi, qondagi qand miqdori va tana vaznini doimo nazorat qiling. Maslahat ko'riklariga o'z vaqtida boring. Chekishni ertadan emas, hoziroq tashlang! Kuniga kamida 10 000 qadam piyoda yuring! O'z sog'lig'ingizga bee'tibor bo'lmang!

Yodda tuting, yurak sizning bir umrlik hamrohingiz. Uni ehtiyot qilish uchun katta mablag' emas, balki to'g'ri qaror: sog'lom odatlar va intizom kerak. Sog'lom yurak – sog'lom oila, baxtli va farovon hayot garovidir.

Muhabbatxon ADILOVA,
IIV Markaziy gospitali
boshlig'ining
birinchi o'rinbosari,
podpolkovnik.

SHAFTOLI KAMQONLIKNI DAVOLAYDI



Ushbu xushta'm meva organik kislotalar, efir moyi, mineral moddalar (kaliy, kalsiy, temir, mis va boshqalar), askorbin kislatasi, V guruhi vitaminlari, pektin moddalar, A provitaminini o'z ichiga oladi. Shaftoli tarkibidagi organik kislotalar va efir moyi oshqozon sekresiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi va ishtahani ochadi. Bu meva safro va peshob haydovchi, yengil surgi xususiyatiga ega. U kamqonlik va gastritni

davolashda yordam beradi, pigmentli dog' va ajinlar paydo bo'lishiga qarshi kurashadi va terini yoshartiradi.

Ushbu meva uglevodlar va qand moddasiga boy bo'lgani uchun qandli diabet va semirishda tavsiya etilmaydi. Bu mevaning danagi zaharli bo'lgani uchun yeb bo'lmaydi, ammo undan kosmetologiyada hamda surtma dorilar, gijjaga qarshi vositalar tayyorlashda foydalaniladi. Shaftoli moyi tirnoqlar parvarishi va tanani massaj qilishda keng qo'llaniladi.

Badiiy asar ham tirik inson kabi tugʻiladi. Uning ham qismati boʻladi... Bu hikoyaning tarixi qiziq. U bundan salkam qirq yil avval yozilgan. Ammo keyinchalik eʼlon qilingan kitoblarga kiritilmagan. Sababi shuki, koʻp oʻtmay yaratilgan «Ikki eshik orasi» romanida ham shunga oʻxshash tasvir bor: ikki yigitchaning jonini garovga qoʻyib suvga kalla tashlashi manzarasi. Yozuvchi oʻzini oʻzi takrorlashga haqqi yoʻq. Lekin bu hikoyadagi «yechim», xulosa butunlay boshqacha. Asar bugungi kitobxonni ham hayajonga solishi, hayot va muhabbat degan sehrli narsa haqida oʻylashga undashiga umid qilaman.

Muallif

Samolyot yomgʻirdan qorayib yotgan beton yoʻlkadan shiddat bilan yugurgilab bordi-da, birdan muallaq toʻxtab qolgandek boʻldi. Yomgʻir tomchilari muttasil chiziqli tortayotgan illyuminator oynasidan tashqariga qaradim. Samolyot qiyalab uchib borar, yerdagi ulkan rezervuarlar, aeroportning yoʻlaklari lipillab ortda qolar, olisda esa qorayib turgan oʻrmon koʻzga tashlanar edi.

Zum oʻtmay atrofini quyuq tuman oʻrab olgandek boʻldi. Bunaqa paytda samolyot silkina-verib odamni bezor qiladi. Oʻzimni chalgʻitish uchun boya aeroportda olgan gazetani yana koʻzdan kechira boshladim. Ammo uni oʻsha yerning oʻzidayoq oʻqib boʻlgandim. Shuning uchun hafsalasizlik bilan suyanchiqqa boshimni qoʻyib, koʻzimni yumdim. Bilmadim, qancha fursat oʻtdi, bir mahal yonbosh tomondan ayol kishining ovozi keldi:

– Gazetangizni koʻrib bersam maylimi?

Yonimga kelib oʻtirgan ayolga eʼtibor bermagan ekanman. Buriilib qaradim. Qaradim-u, esankirab qoldim.

– Dilafrōʻzmisiz? Nima qilib yuribsiz bu yerda?

U quralay koʻzlarini suzib, qandaydir bosiq, ammo oʻktam ovozda kuldi.

– Nima, samolyotda sizdan boshqa odam uchmasligi kerakmi?

– Yoʻgʻ-ye, men... shunchaki, sizni bunaqa vaziyatda uchrataman deb hech oʻylamagandim.

Dilafrōʻz tagʻin oʻsha, oʻzining goʻzalligini biladigan ayollarga xos bosiq, xiyol erkaroq ovozda kulib qoʻydi.

– Durust, tanidingiz... Men qarib qolgan boʻlsam kerak, deb qoʻrqqudim... – U bir zum oʻyga toldi-da, yana kulimsiradi. – Koʻrishmaganimizga ham oʻn sakkiz yil boʻpti.

Men unga endi yaqindan, sinchiklab qaradim. Dilafrōʻz chindan ham ancha oʻzgargan, toʻlishib, qandaydir viqorli ayollarga oʻxshab qolgandi. Faqat koʻzlari, kulganida ich-ichi-



dan yonib ketadigan quralay koʻzlari, oʻzining malohatiga ishongan ayollarga xos xotirjam kulgusi oʻsha-oʻsha edi. Hozir unga shuni aytishim kerakligini bilardim. Ammo ogʻzimdan boshqa gap chiqib ketdi:

– Men sizni tushimda koʻrib turaman. Haliyam...

Ha, men uni hanuz tushlarimda koʻrib turishim rost edi. Men Dilafrōʻzni har gal bir xil tush koʻraman. U oppoq koʻylakda birdan paydo boʻlib qoladi. Quralay koʻzlarida oʻt yonib, allanimalarni gapiradi, kuladi... Keyin toʻsatdan gʻoyib boʻladi.

Oʻshanda, oʻninchi sinfda oʻqib yurganimizda u kunora tushimga kirib chiqardi. Sochlari chiroyli turmaklangan, oppoq koʻylakda, koʻzlarida tabasum... Butun maktabda eng chiroyli qiz shu — Dilafrōʻz edi. U boshqa maktabdan oʻtgan «yangi» qiz boʻlgani uchunmi, bir-birini sensirab gaplashadigan sinfdoshlarning hammasi uni sizlab chaqirardi. Dilafrōʻz darsning birinchi kuni oppoq koʻylak kiyib, eshikdan kirib kelganidayoq uni sevib qoldim. Kechalari uyquga ketish oldidan Xudodan yolgʻiz bir narsani tilar edim. Uni tush koʻrsam,

tushimda aqalli bir marta qoʻlidan tutsam... Ertalab darsga borganda, oʻzini koʻrganda esa undan qochishga urinar, xuddi arazlagan odamdek uzoqroqdan oʻtishga harakat qilardim. Nazarimda, Dilafrōʻz osmon-falakdan, oppoq bulutlar orasida suzib yurgan afsonaviy malakka oʻxshar, unga gapirish, tikilib qarash gunoh edi men uchun.

Ochigʻini aytganda, sinfimizdagi bolalarning koʻpi oshiq edi unga.

sillamizni quritib yubordi. Bolalar miyasi achib ketganidan nolir, bu azoblardan tezroq qutulishni tilar, men boʻlsam, imtihonlar yanayam choʻzilishini ich-ichimdan orzu qilardim. Maktabni bitirsak, Dilafrōʻz bilan bir umr vidolashadigandek...

Esimda, oʻsha kuni kimyo fani imtihonidan bir kun avval yigʻildik. Negadir oʻqituvchimiz kelmadi. Koʻpchilik tarqalib ketdi. Saraton issigʻidan qizib ketgan, boʻr isi anqib turgan

Oʻtkir HOSHIMOV

sinfda oʻn chogʻli bola qoldik.

– Yaqinda imtihonlar tamom! – dedi bolalardan biri orzu-mandlik bilan. – Keyin hamma-miz har qayoqqa «husht!»

Parta ustiga minib oʻtirgan Abjal doʻrillab kuldi.

– Biz qayoqqa ketsak ham Dilafrōʻzni obketamiz! – Bu gapni u shunchalik bepisandlik bilan aytdiki, oʻrnimdan sakrab turib ketdim.

– Nima-a? – dedim choʻzib. – Sen...

«Olib ketasanmi?» deyishga tilim bormadi. Olib ketish u yoqda tursin, Dilafrōʻz mana shu Abjalning yoniga kelishini tasavvur qilishning oʻzi dahshat edi men uchun.

Abjal boyagidan ham bepisandroq ohangda kuldi.

– Iye, sen nega jirillaysan? Eshitib qoʻy! Men Dilafrōʻzxonni...

U yogʻi qandoq boʻlganini bilmayman. Bir mahal ikkalamiz polda dumalashib aylana boshladik. Abjal sochimdan changallab turib boshimni uch-toʻrt yerga urgan edi, koʻz oʻngim qorongʻilashdi-yu, hech nima koʻrinmay qoldi. Oʻzim-ga kelganimda Nizom degan

oʻrtogʻim suyab oʻtirardi. Amal-lab oʻrnimdan turdim. Ogʻzim negadir shoʻrtang edi. Kaftim bilan artgan edim, qoʻlim qon boʻldi. Abjal yoʻl-yoʻl koʻylagining yirtilgan yoqasini gʻijim-laganicha kimyoviy formulalar yozilgan taxta oldida turar, hansirab nafas olardi.

– Agar yana bitta gapirsang, yo sen oʻlasan, yo men! – Bu gapni shu qadar ishonch bilan aytdimki, atrofini oʻrab turgan bolalarning nafasi ichiga tushib ketdi.

– Unaqa boʻlsa bir yoqlik qilish kerak bu masalani. – Boyadan beri oxirgi partada oʻtirgan «Dum» sekin-sekin yurib yaqin keldi. Quvlik bilan hammaga bir-bir qarab chiqdi-da, yelkasini uchirib davom etdi. – Dilafrōʻzni Abjal yaxshi koʻrishidan xabarim bor edi. Endi Ergash yondan chiqqan yonqoziq boʻlib qoldi. – U menga imo qildi. – Yigitchasiga biron chora topish kerak endi.

Nizom rangi oʻchib, uning oldiga bostirib bordi.

– Gapni aylantirma, «Dum»! Nima demoqchisan?

– Biron narsadan garov oʻynashsin, ora ochiq boʻladi-qoʻyadi!

– Masalan?

– Masalan... – «Dum» mushkul muammo qarshisida qolgandek peshonasini tirishtirdi. – Masalan, Boʻrijarga kalla tashlashdan. Kim omon chiqsa...

– Dumingni likillatma, Dum! – Nizom nafrat bilan undan yuzini oʻgirdi. – Ergash yaxshi suzolmasligini bilib, joʻrttaga aytyapsan.

Men kaftim bilan ogʻzimni artgancha ularning bahsini beparvo eshitib turardim. Goʻyo bu gaplarning menga mutlaqo aloqasi yoʻqdek. Faqat «Boʻrijar!» deyishganida bul-tur bir sinfdoshimiz temiryoʻl koʻprigidan kalla tashlab, suvdan chiqmagani esimga tushdi. Uning jasadini bir haftadan keyin allaqaysi toʻgʻondan topib kelishgan edi.

– Xoʻsh, nima boʻpti? Garovni erkak kishi oʻynaydi. – «Dum» har ehtimolga qarshi Abjalning yaqinrogʻiga borib, ovozini balandlatdi. – Yigit degan doʻppi tor kelganida «viyt» deb qochmaydi.

Sekin oʻrnimdan turdim.

– Ketdik.

Nizomning rangi quv oʻchib ketdi.

– Jinnimisan! Vey, ahmoq boʻldingmi?

– Hozirmas, – dedi Abjal hamon koʻylagining yirtigʻini gʻijimlarkan. – Ertaga soat oʻnda, koʻprik ustida.

(Davomi kelgusi sonda.)



Ikkinchi iste'dod

IIV huzuridagi JIED Beshinchi mintaqaviy hudud 12-sonli JIEK tarbiyaviy ishlar bo'limi katta inspektori, katta leytenant Dilshodbek Hamroyev mahkumlarning huquqiy ongi va ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni muntazam tashkil etadi.

Yakka tartibdagi suhbatlar asnosida ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalab, ijtimoiy hayotga moslashishlariga ko'maklashadi. Bunda insonparvarlik tamoyillariga tayanib ish yuritadi. Adashgan, xato qilgan mahkumga to'g'ri yo'l ko'rsatish, unda o'ziga ishonch uyg'otish va jamiyatga munosib fuqaro sifatida qaytishiga hissa qo'shishni asosiy vazifasi deb hisoblaydi.

Lavhamiz qahramonining san'atga mehri bolalikda uyg'ongan. Shu boisdan Navoiy san'at va madaniyat kollejida tahsil olgan. Otasi viloyatdagi «Nihol» orkestriga uzoq yillar

rahbarlik qilgan. Dilshodbek ilk musiqiy mashqlarini kichik o'yinchoq rubobda boshlagan. Onasi esa harbiy xizmatchi bo'lgani uchun unda intizom, mas'uliyat va Vatanga sadoqat tuyg'ulari ham erta shakllangan.

Dilshodbek ulg'aygach, qalb amri bilan onasining kasbini tanladi. 2016-yili oliy harbiy bilim yurtiga kirishga harakat qildi. Ammo omad kulib boqmad. Biroq orzusidan voz kechmad. IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7531-harbiy qismda yig'itlik burchini o'tagach, shartnoma asosida xizmatni davom ettirdi.

XIZMATIGA
SAN'ATIU
Y
G'
U
N

Tinimsiz mehnat, izlanish va qat'iyat o'z samarasini berdi. Keyinchalik IIV Akademiyasiga o'qishga qabul qilindi. San'atga bo'lgan muhabbati ham so'nmadi. Rubob doimo uning hamrohiga aylandi. Ichki ishlar organlarida o'tkaziladigan tanlovlar, forumlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda milliy kuylarni ijro etib, hamkasblariga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Uning fikricha, musiqa inson qalbini go'zal tuyg'ularga oshno etadi. Xizmat esa uning irodasini toblaydi. Qahramonimiz ana shu

ikki sohani uyg'unlashtira oldi. Bugun katta leytenant Dilshodbek Hamroyev o'z xizmat vazifasini sidqidildan bajarish bilan birga, milliy

musiqa san'atini ham ardoqlab kelmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Test

O'ZINGIZGA BAHO BERING

E'tiboringizga havola etilayotgan test ayni damda sizning ruhiy holatingiz qay darajada ekanligini aniqlashga imkon beradi. Siz uch variantda javob berishingiz mumkin: «doim», «ba'zan», «deyarli hech qachon».

1. Men ishlayotgan paytda aqlimni yig'ib olishga qiynalaman.

2. Menda o'zimga nisbatan ishonchsizlik ustun.

3. Ko'p vaqtlar o'z hayotimdan qoniqmasligimni his qilaman.

4. Men arzimans narsalarga ham yig'lab yuboraman.

5. Men ko'p hollarda kimdandir yoki nimadandir bezovta bo'la boshlayman.

6. Men ruhiy tushkunlikni ko'tara olmayman.

7. Shubha-gumonlar menga doim azob beradi.

8. Ish vaqtida shoshma-shosharligimdan bezovta bo'la boshlayman.

9. Menda bezovtalik hissi tez paydo bo'ladi.

10. Ba'zan o'zimni hech kimga keraksizdek his qilaman.

11. Men asabiy va tez junbushga keladigan kishiman.

12. Men qiyin holatlar va kelishmovchiliklardan qochishga harakat qilaman.

13. Vaqti-vaqti bilan kechalari qo'rquv meni zabt etadi.

14. Tushimda dahshat narsalarni ko'raman.

15. Tushlarim aloq-chaloq.

16. Turmush o'rtog'imga kam e'tibor beraman.

17. Mening hayotim keskin vaziyatlardan iborat.



18. Boshqalar mendan ko'ra baxtliroq, deb o'ylayman.

19. Oshqozonim meni bezovta qiladi.

20. Biron narsa qilmoqchi bo'lsam, qo'llarim qaltirayotganligini sezaman.

21. Kuchli bezovtalik, xuruji tez-tez bo'lib turadi.

22. Hatto sovuq kunlari ham tez terlab ketaman.

23. Ish va pul haqidagi fikrlar menga tinchlik bermaydi.

TEST NATIJALARI

Umumiy ballar taqsimi quyidagicha bo'ladi. Har bir **«doim» javob uchun – 3 ball, «ba'zan» – 2 ball, «deyarli hech qachon» – 0 ball.**

60 va undan ortiq ball: Ushbu test nati-

jasiga ko'ra, sizda turli xil qo'rquv va bezovtalik o'z hukmini o'rnatgan. Siz doimiy ichki keskin vaziyatlar girdobida yashar ekansiz. O'zingizdagi qo'rquv va xavfsirash sabablari ustida o'ylab ko'rishingizga to'g'ri kela-di. Agar ular tashqi omillar tufayli bo'lsa, bartaraf etish mumkin, ammo hech bir sababsiz kelib chiqsa, bu jiddiy va mutaxassisga murojaat qilishingiz lozim.

30-60 ball: Siz barqaror shaxs ekansiz. Arzimans narsalardan bezovtalanish sizga xos emas. Biroq

qo'rquv hissi sizga ham notanish emas.

0-30 ball: Siz qo'rquv hissidan xolisiz va sizga havas qilsa arziydi. Shunday bo'lsa-da, javoblaringiz haqiqiylikni yana bir bor o'ylab ko'ring.

0 ball: Agar jami ballingiz 0 bo'lsa, siz ruhiy jihatdan mustahkam va «o'zga sayyoralik» kabi xotirjam insonsiz.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Sarvar SOBIROV
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari

bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1999.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
47047 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1A-uy.